2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 239 (1028), 2023-yil 17-noyabr, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

HUDUDLARNING “O‘SISH NUQTALARI” BELGILAB OLINGANI ODAMLARNING HAYOTDAN ROZI BO‘LIB YASHASHIGA XIZMAT QILAYOTIR

Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlar iqtisodiyoti, muhim ijtimoiy dasturlar ijrosi bilan tanishish maqsadida 16-noyabr kuni Surxondaryo viloyatiga keldi.

Dastlab buyuk olim Hakim at-Termiziy maqbarasi ziyorat qilindi. Qur’on tilovat etilib, yurtimizga tinchlik, xalqimizga farovonlik tilandi. Ulamolar bilan suhbatda bugungi tahlikali zamonda sodir bo‘layotgan turli nizo va urushlar tufayli begunoh insonlar qoni to‘kilayotgani qayd etildi. Bu yurtimizdagi tinchlik-osoyishtalik qadrini yanada teran anglatib, insonda shukronalik ruhini uyg‘otadi. Bunday ulug‘ ne’matlar ahamiyatini, Termiziy kabi bobolarimiz ilm-ma’rifatini yoshlarga yetkazish muhimligi ta’kidlandi. Shu masalalar bo‘yicha Termizda ilmiy konferensiya o‘tkazish taklifi ilgari surildi.

Viloyat iqtisodiyoti so‘nggi yillarda zamonaviy sanoatni yo‘lga qo‘yish, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish va tekstil sohasini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirish orqali yanada yuksalmoqda.

Davlatimiz rahbarining bevosita g‘oyasi asosida janubdagi voha salohiyatidan kelib chiqib, hududlarning “o‘sish nuqtalari” belgilab olingani odamlarning turmush darajasini oshirib, tinch, to‘kin hayotidan rozi bo‘lib yashashiga xizmat qilayotir. Prezidentimizning joriy yil 13-mart kuni viloyatga tashrifi chog‘ida hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan belgilab bergan vazifalari ijrosi ham yurt obodligi va Surxon ahlining farovon hayotini ta’minlashda muhim omil bo‘lmoqda. Jumladan, yilning o‘tgan 9 oyida viloyatda yalpi hududiy mahsulot 29,4 trillion so‘mni tashkil etib, o‘sish sur’ati 105,2 foizga yetdi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 5,9 trillion so‘mni, xalq iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmi 1,7 trillion so‘mni, pudrat ishlari 5,2 trillion, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 24,2 trillion, xizmatlar hajmi 11 trillion so‘mni tashkil etdi. Aholi jon boshiga hisoblaganda yalpi hududiy mahsulot hajmi 10,4 million so‘mga yetkazilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 102,7 foizga o‘sish ta’minlandi. 161,8 million dollarlik mahsulot eksport qilindi. Ishlab chiqarilayotgan raqobatbardosh mahsulotlar Xitoy, Rossiya, Pokiston, Turkiya, Afg‘oniston, Qozog‘iston kabi dunyoning 27 davlatiga eksport qilinmoqda. Dasturlar asosida 1,3 milliard dollarlik 1 ming 36 loyiha amalga oshirilmoqda.

Viloyat iqtisodiyotida yuz berayotgan bunday olamshumul o‘zgarishlar odamlarning bandlik masalasini hal etish, barcha zamonaviy qulayliklarga ega uy-joylar qurish, yo‘llar, ta’lim, tibbiyot va boshqa ijtimoiy soha obyektlarini tubdan rekonstruksiya qilish, yangilarini barpo etish singari ishlar ko‘lamini kengaytirdi. Masalan, o‘tgan yilning 9 oyida 203 ming 300 ish o‘rni tashkil etilgan bo‘lsa, joriy yilning shu davrida 353 ming 300 ta ish o‘rni yaratildi.

Yaqin yillarda ham agrar hudud bo‘lgan viloyat iqtisodiyoti yuksalib, daromad manbai oshayotgani kambag‘allik darajasini 13,8 foizdan 11,2 foizga kamaytirdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashrif doirasida Boysun tumanida bo‘lib, xalqimiz farovonligiga xizmat qiladigan yirik loyihalardan biri — “Mustaqillikning 25 yilligi” gaz-kimyo majmuasi qurilishi bilan tanishdi.

Bu yerda gaz koni bir necha o‘n yillar oldin topilgan. Biroq geografiyasi murakkabligi, o‘sha paytda zamonaviy texnologiya va mablag‘ bo‘lmagani uchun kon o‘zlashtirilmagan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qat’iyati bilan bu borada amaliy qadamlar tashlandi. Davlatimiz rahbari 2019-yil aprel oyida bu yerda bo‘lib, dastlabki qidiruv va texnik-iqtisodiy asoslar bilan tanishgan edi. O‘sha yilning dekabr oyida zavodni qurish ishlari boshlandi. “Surhan Gas Chemical Operating Company” xorijiy korxonasi tomonidan amalga oshirilayotgan ushbu loyihaning qiymati 2,9 milliard dollar. Majmua yiliga 5 milliard metr kub gazni qazib chiqarish va qayta ishlash quvvatiga ega bo‘ladi. Hozirgacha konni o‘zlashtirishga 1 milliard 450 million dollarlik investitsiya kiritilib, 20 ta quduqda burg‘ilash ishlari yakunlangan. 11 ta gaz qudug‘i sinovdan muvaffaqiyatli o‘tgan. Poydevor ishlari va metall konstruksiyalar qurish deyarli yakuniga yetgan.

Zavod loyihalari va qurilishi “Shell” kompaniyasining litsenziyalangan texnologiyalari asosida olib borilmoqda. U eng ilg‘or ekologik talablarga mos bo‘lib, ishlab chiqarishdagi zararli chiqindilarni 99 foiz zararsizlantirish imkoniyatiga ega. Bunday uskunalar MDH davlatlari ichida birinchi bor ushbu zavodga o‘rnatilmoqda. Yana bir muhim jihati, zavod elektr energiyani ham o‘zi generatsiya qiladi va tuman aholisiga yetkazib beradi.

Davlatimiz rahbari shu yerda geologik qidiruv va seysmik tadqiqot ishlari yakunlari bilan tanishdi. Investorlar, konni o‘zlashtirishda qatnashayotgan mutaxassis va quruvchilar bilan suhbatlashdi.

— Asosiy maqsad gazni xom-ashyo holatida sotish emas, uni qayta ishlab, qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar olish bo‘lishi lozim. Investitsiya tez vaqtlarda o‘zini oqlab, zavod raqobatbardosh bo‘lishi uchun oxirgi mahsulot sifatli va yuqori daromadli bo‘lishiga erishish kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bu bo‘yicha qaror ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi. Majmua Boysun shahridan 20 kilometr uzoqda joylashgan. Ayni paytda uning qurilishida 7 mingdan ortiq kishi, maxsus texnikalar ishlamoqda. Loyihaning birinchi bosqichi kelgusi yil may oyida ishga tushiriladi, 2025-yilda to‘la quvvatga chiqadi.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

FARMONI

“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AKSIYADORLIK JAMIYATI TASHKIL ETILGANINING 65 YILLIGI MUNOSABATI BILAN ISHLAB CHIQARISH ILG‘ORLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizning iqtisodiy qudratini yuksaltirish, kon-metallurgiya sanoatini zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish, murakkab ish va iqlim sharoitlarida mineral boyliklarni samarali o‘zlashtirish, tarmoqning barqaror ishlashini ta’minlash, jahon andozalariga mos yangi korxonalarni tashkil etish borasidagi katta xizmatlari, ko‘p millatli mehnat jamoasida do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlash, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qo‘shgan munosib hissasi uchun quyidagilar mukofotlansin:

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sanoat xodimi” faxriy unvoni bilan

Ganiyev Yuldash Urinovich — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining Markaziy kon boshqarmasi markaziy ta’mirlash-mexanika sexi boshlig‘i

“Do‘stlik” ordeni bilan

Ahadov Xayrulla Rofiyevich — “Navoiyuran” davlat korxonasi bosh geologi

Baxronov Farxod Shayimovich — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati bosh direktorining investitsiyalar va kapital qurilish bo‘yicha o‘rinbosari

Janaxmetov Serijan — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamg‘armasi” davlat muassasasining “Navoiy” hududiy boshqarmasi “Farhod” madaniyat saroyi yakkaxon xonandasi

Kuleshov Andrey Dmitriyevich — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining Markaziy kon boshqarmasi “Muruntog‘” koni burg‘ilash qurilmasi mashinisti

Pogosskaya Albina Rishatovna — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining Zarafshon qurilish boshqarmasi 4-avtokorxona kran mashinisti

Sadinov Shuxrat Mardonovich — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati bosh marksheyderi

Turganbayeva Guljamila Urazbayevna — Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining Shimoliy kon boshqarmasi 3-Gidrometallurgiya zavodi quyultirish, sanoat chiqindilarini zararsizlantirish va reagentlarni tayyorlash sexi katta ustasi

Soy Maya Vasilyevna — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining Shimoliy kon boshqarmasi byudjetlashtirish va kontrolling bo‘limi boshlig‘i

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI 2030

Jahon maydonida sodir bo‘layotgan tub o‘zgarishlar, xususan, geosiyosiy ta’sir doiralarini “qayta taqsimlash”ga urinishlar, qurolli ziddiyatlar va buning oqibatida yuzaga kelayotgan davlatlararo ishonchsizlik jarayonlarining tobora kuchayib borishi zamonaviy xalqaro tartibot tizimi izdan chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Shunday ekan, konstruktiv hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshirish har bir davlat oldida turgan dolzarb vazifaga aylanib ulgurdi.

TASHQI SIYOSIY STRATEGIYA FALSAFASI

xalq manfaatlari va tinchliksevarlik tamoyilida aks etadi

Xalqaro munosabatlar tizimidagi mazkur o‘zgarishlar O‘zbekiston milliy manfaatlarini izchil himoya qilish va tashqi siyosiy strategiyani shu asosda yo‘lga qo‘yishni taqozo etmoqda. Mamlakatimiz tashqi siyosati ochiq va pragmatik xarakterga ega bo‘lib, u suveren tenglik, o‘zaro manfaatli hamkorlik, tinchliksevarlik, ahil qo‘shnichilik va umume’tirof qilingan xalqaro normalarga sodiqlik tamoyillarini o‘zida mujassam etadi.

Davomi 3-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I

“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AKSIYADORLIK JAMIYATI TASHKIL ETILGANINING 65 YILLIGI MUNOSABATI BILAN ISHLAB CHIQARISH ILG‘ORLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

“Shuhrat” medali bilan

Bekqulov Razzoq Ataqulovich — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining Janubiy kon boshqarmasi “Zarmitan” koni lahimchisi

Berdiyorov Nuriddin Mamirzayevich — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining Janubiy kon boshqarmasi “Marjonbuloq” koni oltin ajratish sexi muhandis-texnologi

Bobodo‘stov Zafar Majidovich — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining “Navoiy mashinasozlik zavodi” ishlab chiqarish birlashmasi quymachilik sexi boshlig‘i

Bo‘riyev Nasrullo Safoqulovich — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining Shimoliy kon boshqarmasi “Sharqiy” ochiq usulda qazib olish koni burg‘ilash qurilmasi mashinisti

Zakirov Askar Axmedjanovich — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining Janubiy kon boshqarmasi 4-Gidrometallurgiya zavodi direktori

Irgashov Tulkin Yadgarovich — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining “1-Gidrometallurgiya zavodi” kon boshqarmasi 2-texnologik sexi apparatchisi

Karimova Feruza Maxmanazarovna — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining Markaziy kon boshqarmasi “Auminzo-Amantoy” koni texnologik laboratoriyasi kimyoviy tahlil laboranti

Muhammedov Mehriddin Normurodovich — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining Shimoliy kon boshqarmasi “Daugiztau” koni ekskavator mashinisti

Pulatov Vaxidjon Baxtiyarovich — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish boshqarmasi boshlig‘i

Umarov Shodiyor Shuxratovich — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining Shimoliy kon boshqarmasi Avtomobil transporti boshqarmasi dispetcheri

Usmonov Ixtiyor Normuhammadovich — “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining Markaziy kon boshqarmasi 5-Gidrometallurgiya zavodi ta’mirlovchi-chilangari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **SH. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2023-yil 16-noyabr

IQTISODIYOT

MAHSULOT YEVROPA BOZORLARIDA XARIDORGIR

BUNING BOISI NIMADA?

O‘z yo‘nalishida dunyodagi eng noyoblardan biri sifatida “Uzbekistan GTL” korxonasi kutilgan natijani bermoqda. Bugun ushbu majmuada ishlab chiqarilayotgan dizel yonilg‘isi nafaqat Osiyo, balki Yevropa bozorlariga ham kirib borayotgani buning tasdig‘idir.

E’tiborli jihati, korxona mahsulotlari ekologik tozaligi bilan alohida ajralib turadi. Ya’ni GTL dizeli oddiysiga qaraganda atrof-muhit va inson uchun kamroq zarar yetkazadi.

Undan muntazam foydalangan transportlarning yonilg‘i va moylovchi qismlariga texnik xizmat ko‘rsatish oralig‘i taxminan ikki barobar uzayadi.

Zavodni elektr energiyasi bilan ta’minlashda ham innovatsion yechim qo‘llanilgan. Texnologik jarayonda hosil bo‘ladigan bug‘ni generatorlarga yuborish orqali elektr quvvati ishlab chiqariladi. Mavjud generatorlardan ishlab chiqarilayotgan quvvat Sho‘rtan konlari negizida joylashgan asosiy ishlab chiqarish obyektlarini uzluksiz ta’minlashga yo‘naltiriladi.

Joriy yil oktabrdan “Uzbekistan GTL” zavodida o‘ta past haroratlarga bardoshli arktik turdagi GTL dizel mahsulotlari ishlab chiqarish o‘zlashtirildi. Bu turdagi yonilg‘ini har qanday anomal sovuqda ishlatish mumkinligi aytilmoqda.

— Dizel mahsulotlari mavsumiyligiga qarab yozgi, qishki va arktik turlariga bo‘linadi, — deydi zavod markaziy laboratoriyasi xodimi Nurxon Nurillayev. — Belgilangan standartlar talabiga ko‘ra, yozgi yonilg‘i havo harorati -5 darajagacha, qishkisi -32 darajagacha, arktik turdagisi esa -47 darajagacha bo‘lsa, xususiyatini yo‘qotmaydi. Yangi mahsulotimiz esa -50 daraja sovuqda ham o‘z holatini saqlab qoladi.

Zavodning ishlab chiqarish jarayonida innovatsion texnologiyalar, ilg‘or transformatsiya jarayonlari tatbiq qilinishi, energetika sohasida notinch va nobarqaror paytlarda ishlab chiqarish jarayonini boshqarishning tezkorligi va moslashuvchanligi xalqaro miqyosda ham e’tirof etilayotir.

GTL dizel yonilg‘isi patentlangan “Sasol” texnologiyasi asosida tabiiy gazdan ishlab chiqarilgan mutlaq sintetik, yuqori sifatli o‘rta distillatli yonilg‘idir. U Yevropaning eng yuqori standartlariga javob bergani uchun “Yevro 6” avlodiga (K-6) mansub bo‘lib, premium toifadagi yonilg‘ilar qatoriga kiradi.

GTL dizel yonilg‘isining an’anaviy yonilg‘idan ustunlik jihatlari shuki, u tarkibida oltingugurt va aromatik uglevodorodlar deyarli yo‘qligi, setan soni juda yuqoriligi, o‘zi deyarli hidsiz va rangsiz ekani bilan EN15940 Yevropa standartining barcha talablariga javob beradi.

Yevropada “Uzbekistan GTL” mahsulotlari sotuvi allaqachon boshlandi. Demak, kattagina sarmoya hisobiga qad rostlagan yirik zavod samara beryapti. Bu esa kelgusida iqtisodiyotimiz yanada yuksalib, shu kabi yangi loyihalarni boshlashga zamin yaratadi.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

HUDUDLARNING “O‘SISH NUQTALARI” BELGILAB OLINGANI ODAMLARNING HAYOTDAN ROZI BO‘LIB YASHASHIGA XIZMAT QILAYOTIR

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz Sariosiyo tumanidagi To‘palang gidroelektr stansiyasida amalga oshirilgan modernizatsiya ishlarini ham ko‘zdan kechirdi.

Mamlakatimiz ham iqtisodiy, ham aholi soni jihatidan o‘sib, energetika quvvatlariga talab yildan-yilga ortmoqda. Buni ta’minlash maqsadida davlatimiz tomonidan barcha manbalar ishga solinmoqda. Jumladan, gidroenergetikani rivojlantirishga katta urg‘u berilyapti. So‘nggi yillarda 19 ta yangi gidroelektr stansiya barpo etildi, 13 tasi modernizatsiya qilindi. Ulardan eng muhimi To‘palang gidroelektr stansiyasidir. U 2006-yilda ishga tushirilgan paytda jami 30 megavatt quvvatli ikkita agregat bo‘lgan.

Davlatimiz rahbari 2019-yilning aprel oyida bu yerga tashrif buyurib, yana ikkita gidroagregat qurish yuzasidan topshiriq bergan edi. Avvaliga suv ombori to‘g‘oni qo‘shimcha 20 metrga ko‘tarildi. Natijada uning sig‘imi 380 million kub metrdan 500 millionga yetkazildi. Zamonaviy texnologiyalar asosida qurilish-montaj ishlari olib borilib, jami quvvati 145 megavattli ikkita agregat o‘rnatildi. Shu tariqa, To‘palang GESining umumiy quvvati 175 megavattga yetib, Chorvoq GESidan keyin mamlakatimizdagi ikkinchi yirik stansiyaga aylandi.

Samaradorligini aytganda, bu yerda yiliga qo‘shimcha 467 million kilovatt/soat elektr quvvati yaratildi. Qariyb 167 mingta xonadonning elektr ta’minoti yaxshilandi. Bu yiliga o‘rtacha 107 million metr kub tabiiy gazni tejash imkonini beradi.

Prezidentimizning joriy yil mart oyida Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida To‘palang gidroelektr stansiyasini modernizatsiya qilish loyihasiga start berilgan edi. Galdagi tashrif chog‘ida mazkur loyiha asosida amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishildi. Shu yerda To‘palang daryosi negizida gidroenergetika quvvatlarini oshirish bo‘yicha taqdimot ham o‘tkazildi. Unga ko‘ra, kelgusi yillarda daryoning yuqori qismida qurish uchun 20 ta istiqbolli loyiha shakllantirilgan. Ularning umumiy quvvati 264 megavatt bo‘lishi mo‘ljallangan.

Davlatimiz rahbari bu ishlarni kengaytirib, har bir soy, imkoniyati bor har bir mahallada mikro GESlar barpo etish mumkinligini ta’kidladi. Shuningdek, Surxondaryoda ko‘mir qazib olish imkoniyatlari bo‘yicha axborot berildi. Qayd etilganidek, hududda 82 million tonna ko‘mir zaxirasi aniqlangan. Bugungi kunda 541 ming tonna qazib olinmoqda. Buni 2 million tonnaga yetkazish, mutaxassislar tayyorlash zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ko‘paytirilmoqda. Jumladan, gidroenergetikada bir oqim orqali ko‘p marta “yashil energiya” hosil qilish mumkin. Shu bois Prezidentimizning 2017-yil 17-oktabrdagi qaroriga muvofiq, To‘palang daryosida kichik elektr stansiyalari ham qurildi. Xususan, 2020-yil dekabr oyida 37 megavattli “Zarchob-1” hamda 2021-yil sentabr oyida 38 megavattli “Zarchob-2” GESlari ishga tushirildi. Bugungi kunda ularda 48 mingta xonadonga yetadigan elektr energiyasi hosil qilinmoqda.

Daryoning quyi qismida yana bir kichik GES — “Zarchob-3” qurilishi loyihalashtirilgan. Davlatimiz rahbarining tashrifi chog‘ida uning qurilishiga tamal toshi qo‘yildi. Bu stansiyaning quvvati 16 megavatt bo‘ladi va yiliga 70 million kilovatt/soat ekologik toza elektr energiyasi ishlab chiqariladi. U tabiiy va qayta tiklanuvchanligi bilan ahamiyatli. Shuningdek, boshqa quvvatlar asosan kunduzi ishlab chiqarilgani bois, bu yo‘nalish energetika tizimida rostlovchi vazifasini ham o‘taydi. Olinadigan elektr tannarxi ham boshqa manbalarga nisbatan ancha arzon. Hozirgi tizim bo‘yicha daryo suvi maxsus bosim ostida avval To‘palang GESiga yo‘llanadi. Undan keyin bir-biridan uncha uzoq bo‘lmagan Zarchob stansiyalaridagi parraklarni aylantiradi.

Shuningdek, xususiy sektor tomonidan mikro GESlar barpo etishga ham keng imkoniyat berilmoqda. Buning uchun huquqiy, iqtisodiy sharoitlar yaratilgan. Jumladan, kichik va mikro GESlarni qurish istagidagi tadbirkorlarga yerlarni 20 yil muddatga ijaraga berish, ular ishlab chiqargan elektrni davlat tomonidan kafolatli sotib olish tizimi joriy qilingan.

2021-yilda Termizda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda davlatimiz rahbari Surxondaryo viloyatida ichimlik suvi bilan bog‘liq muammoga alohida to‘xtalgan edi. O‘sha paytda hududda markazlashgan tarmoqlar orqali ichimlik suvi bilan ta’minlash darajasi 60 foiz atrofida edi. Prezidentimiz bu borada “To‘palang” suv ombori ulkan va toza manba ekanini ta’kidlab, uni aholiga yetkazish bo‘yicha loyiha tayyorlash vazifasini qo‘ygan edi.

Haqiqatan ham, bu havzaga suv tog‘lardagi qor va muz erishidan yig‘iladi. Tekshiruvlarga ko‘ra, bu suvning qattiqlik darajasi 4 foiz, foydali minerallarga boy va musaffo. Bundan foydalanib, Surxondaryo aholisi uchun muhim ijtimoiy loyiha amalga oshirilmoqda. Loyiha doirasida suv omboridan to Termiz shahrigacha 380 kilometr metall quvurlar tortiladi. Uning 159 kilometri magistral, 221 kilometri shahar va tumanlarni bog‘lovchi ichki tarmoqlardir. Shuningdek, suv tozalash, bosimni kamaytirish va suv yig‘ish inshootlari quriladi. Bugungi kunda 147 kilometr quvur tortib bo‘lindi. Suv tozalash, bosimni kamaytirish va beshta suv yig‘ish inshooti barpo etildi.

Sariosiyo tumani Bog‘iston mahallasida ushbu loyihaning birinchi bosqichini ishga tushirish marosimi bo‘ldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ramziy tugmani bosib, “obi hayot” yo‘lini ochdi. Mazkur bosqichda suv Sariosiyo, Denov, Sho‘rchi va Qumqo‘rg‘on tumanlariga yetib bordi. Viloyat aholisining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlanish darajasi 70 foizga yetdi. Yana bir muhim jihati, suv o‘z oqimi bilan tushishi tufayli 8,6 million kilovatt/soat elektr energiyasi iqtisod qilinadi.

Loyihaning ikkinchi bosqichida markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlanish darajasi 90 foizga yetkaziladi. Bundan Sariosiyo, Denov, Sho‘rchi, Qumqo‘rg‘on, Jarqo‘rg‘on, Bandixon, Qiziriq, Sherobod, Angor, Muzrabot, Termiz tumanlari va Termiz shahridagi 2 millionga yaqin aholi bahramand bo‘ladi. Loyihani 2024-yilda nihoyasiga yetkazish mo‘ljallangan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Surxondaryo viloyatiga tashrifi davomida Sariosiyo tumanidagi Sebzor mahallasida bo‘ldi. Bu yerda 7 ming 600 nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi. To‘rtta korxona, yigirmadan ortiq savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlarida shu yerlik yoshlar doimiy ish bilan band. Mahalla ahli asosan bog‘dorchilik, chorvachilik va sabzavotchilik bilan shug‘ullanadi. O‘ttizdan ortiq dehqon va fermer xo‘jaliklari faoliyat yuritmoqda.

Davlatimiz rahbari “Barakatullo Davr Baraka” fermer xo‘jaligi bog‘ida bo‘lib, poliz ekinlari rivojini ko‘zdan kechirdi. Bu yerda 6 gektar olma, 1,3 gektarda xurmodan mo‘l hosil olinmoqda. Daraxtlar qator oralarida ertaki ekinlar, jumladan, oq boshli karam, piyoz, sarimsoqpiyoz yetishtirilgan.

Ma’lumki, Surxondaryoning iqlimi erta hosil olish imkonini beradi. Lekin qishloq xo‘jaligida ilmiy yondashuv yetishmayotgani ko‘rsatib o‘tildi. Shuning uchun viloyatda in-vitro laboratoriyalari tashkil etib, urug‘chilikni yaxshilash, umuman, Surxondaryo qishloq xo‘jaligini eksportga ixtisoslashtirish zarurligi ta’kidlandi. Bog‘, tog‘ yonbag‘ri va dala chetlarini xatlovdan o‘tkazib, ekinlar uchun qo‘shimcha imkoniyatlarni o‘rganish, olimlarni jalb etib, mahsulotlar hosildorligi va sifatini oshirish, qayta ishlashni rivojlantirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Mahallada ijtimoiy masalalar ham manzilli hal etilmoqda. Yo‘llar ta’mirlangan. Kuz-qish mavsumi oldidan transformatorlar yangilandi, qo‘shimcha simyog‘ochlar o‘rnatildi. Maktab va maktabgacha ta’lim muassasasida zarur sharoitlar yaratilgan. Yaqinda mahalla hududida kichik tibbiyot punkti tashkil etildi. Prezidentimiz undagi sharoitlarni ko‘zdan kechirdi.

Asosan profilaktik ko‘rik va patronaj xizmati bilan shug‘ullanadigan ushbu muassasada bir nafardan shifokor va doya, ikki nafar hamshira faoliyat olib boradi. Mahalla aholisi ilgari 27 kilometr masofadagi shifoxonaga borar edi. Endi ularning uzog‘i yaqin bo‘ldi. Bu yerda bolalarni emlash, surunkali bemorlarni sog‘lomlashtirish va ularning nazoratini olib borish yo‘lga qo‘yilgan.

Davlatimiz rahbari shu yerda tibbiyot xodimlari va mutasaddilari bilan suhbatlashdi.

— Meni eng ko‘p o‘ylantiradigan masalalardan biri — xalqimizning sog‘lig‘i. Shuning uchun shifoxonalar qurishga, ijtimoiy dorilar ta’minotiga, tez tibbiy yordamga katta mablag‘ ajratilyapti. Tibbiyot xodimlarining oylik maoshlari ham oshirildi. Endi muhimi — aholini kasallik bo‘yicha xavf guruhiga ajratgan holda, manzilli davolash va sog‘lig‘ini nazorat qilish, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Masalan, bir hudud aholisining 30 foizi kasal yoki kasallikka moyil bo‘ladi. Mahalladagi tibbiyot xodimlari ularga alohida e’tibor qaratib, ahvolini kuzatib borishi kerak. Shu bilan birga, to‘g‘ri ovqatlanish, ko‘proq piyoda yurishning foydasini keng tushuntirish, mahallalarda fitobarlar tashkil etish muhimligi ta’kidlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev Surxondaryo viloyatidagi harbiy qismga tashrif buyurdi.

Mamlakatimiz mudofaa tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar qo‘shinlarning jangovar salohiyati va harbiy-ma’muriy sektorlar faoliyatini yanada yuksaltirishda muhim omil bo‘lmoqda.

Mazkur qismda ham harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligini oshirish uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. O‘quv binolari, ma’naviyat va ma’rifat xonalari, sport zali eng zamonaviy texnika va uskunalar bilan jihozlangan.

Davlat rahbari harbiy qismda yaratilgan sharoitlar, chegarani qo‘riqlashda qo‘llanilayotgan harbiy texnika va qurol-aslahalarni ko‘zdan kechirdi. Bunda uchuvchisiz uchish apparatlarining ahamiyati alohida ta’kidlandi, ularni ishlab chiqarish masalalari muhokama qilindi.

Qurolli Kuchlarimizning salohiyatini oshirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, shaxsiy tarkibning shayligi, zamonaviy qurol-aslahalar, uchuvchisiz uchish apparatlarini boshqarish hamda ularga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma’lumot berildi.

Davlatimiz rahbariga “Bayraktar TB2” razvedka-zarba uchuvchisiz uchish apparatining parvozi namoyish etildi.

Prezidentimizning Surxondaryo viloyatiga tashrifi davom etmoqda.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
Xolmo‘min MAMATRAYIMOV,
O‘zA muxbirlari

O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI 2030

TASHQI SIYOSIY STRATEGIYA FALSAFASI

xalq manfaatlari va tinchliksevarlik tamoyilida aks etadi

Suhrob BO‘RONOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori

Dunyoning turli burchaklarida avj olayotgan keskin nizolar sharoitida Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik va taraqqiyot muhiti hukm surmoqda. Tabiiyki, bunday muhit o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi. Bu jarayonda O‘zbekiston tashqi siyosiy strategiyasining o‘rni va beqiyos hissasi bo‘lib, u tom ma’noda, mintaqa xalqlari o‘rtasida ahillik, birodarlik va yaqin qo‘shnichilik munosabatlarini rivojlantirish kabi oliy maqsadlarni ko‘zlaydi.

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston tashqi siyosatining bosh huquqiy asosi Konstitutsiya hisoblanadi. Joriy yilda Konstitutsiyamizga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar tashqi siyosatning xalqchil bo‘lishiga mustahkam zamin yaratdi. Jumladan, Asosiy qonunimizning tashqi siyosatga bag‘ishlangan bobiga ikkita muhim qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritildi. Birinchisi, 17-moddada O‘zbekiston tashqi siyosatida avval ilgari surilgan tamoyillar qatoriga “davlatlarning hududiy yaxlitligi” tamoyili qo‘shildi. Ushbu tamoyilning favqulodda muhimligi shundaki, bugungi dunyo tartibotida hudud yoki makon uchun kurash olib borish, qurolli nizolarni keltirib chiqarish, o‘z manfaatlarini ko‘zlovchi tashqi kuch markazlarining o‘zaro raqobati aynan hudud uchun sodir bo‘layotgani, bu esa xalqaro huquqning universal hududiy yaxlitlik tamoyili buzilishiga olib kelayotgani bilan chambarchas bog‘liq.

Ikkinchi o‘zgarish esa tashqi siyosat bobiga yangi 18-modda qo‘shilib, unda “O‘zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi”, degan qat’iy band kiritildi. E’tiborli tomoni, ushbu qoida mamlakatimizning global va mintaqaviy munosabatlar tizimida tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshirishiga huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab qo‘yilgan.

Ayniqsa, “Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirish” deb nomlangan 90-maqsadi xalqchil va tinchliksevar tashqi siyosat yuritishning aniq tamoyillari va mezonlarini o‘zida mujassam etadi. Xususan, dunyodagi mavjud murakkab vaziyatda ochiq, pragmatik, faol va yaxshi qo‘shnichilik siyosati olib borilishini izchil davom ettirish, hamkor mamlakatlar bilan va nufuzli xalqaro tashkilotlar doirasida mintaqaviy, global masalalar bo‘yicha muvozanatli va doimiy muloqotlar o‘rnatish vazifalari belgilangan. Shuningdek, barcha yaqin atrofdagi davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik

va strategik sheriklik munosabatlarini jadal rivojlantirish, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va gumanitar yo‘nalishlardagi ikki hamda ko‘p tomonlama muzokaralarni muntazam va samarali olib borish masalalari aks etgan.

Markaziy Osiyo birdamligi sari

O‘zbekiston tashqi siyosatining bosh ustuvor yo‘nalishi bo‘lgan Markaziy Osiyo mintaqasi zamonaviy xalqaro munosabatlarning strategik markazlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kun haqiqati shuki, mintaqaning tinchligi, barqarorligi va taraqqiyoti masalalari O‘zbekistonning tashqi siyosiy qarorlari va strategiyasiga chambarchas bog‘liq.

Buni, bir tomondan, mamlakatimizning Markaziy Osiyoning barcha davlatlari, shuningdek, Afg‘oniston bilan bevosita chegaradosh ekani, boshqa tomondan, O‘zbekiston yetakchisi Shavkat Mirziyoyevning mintaqa taqdiriga daxldor tashqi siyosiy tashabbuslari Markaziy Osiyodagi siyosiy muhitning sezilarli o‘zgarishiga olib kelgani bilan izohlash mumkin.

Ayniqsa, O‘zbekiston tashabbusi asosida ishlab chiqilgan va “mintaqa beshligi”ning har birida o‘tkazilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvi bugungi xalqaro munosabatlar tizimida Markaziy Osiyoning qaytadan uyg‘onishi va regionalizm sari dadil qadam tashlashi uchun fundamental asos bo‘lmoqda. Maslahat uchrashuvining muntazam o‘tkazilishi natijasida Markaziy

Osiyo mintaqasiga qiziqish o‘zining yuqori cho‘qqisiga chiqmoqda.

Masalan, mintaqani yaxlit makon sifatida ifoda etgan “Markaziy Osiyo+” formati doirasi kengayib, ularning soni hozirda jami 9 tani tashkil qilmoqda. Eng asosiysi, ulardan 7 tasi oliy darajada, ya’ni sammit darajasida o‘tkazilgani fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo

O‘zbekiston tashabbusi asosida ishlab chiqilgan va “mintaqa beshligi”ning har birida o‘tkazilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvi bugungi xalqaro munosabatlar tizimida Markaziy Osiyoning qaytadan uyg‘onishi va regionalizm sari dadil qadam tashlashi uchun fundamental asos bo‘lmoqda. Maslahat uchrashuvining muntazam o‘tkazilishi natijasida Markaziy Osiyo mintaqasiga qiziqish o‘zining yuqori cho‘qqisiga chiqmoqda.

davlatlarining umumiy ichki mahsuloti 40 foizga ko‘payib, o‘zaro tovar aylanmasi 2,5 barobardan oshgani ham mintaqadagi ishonch va amaliy hamkorlikning o‘ziga xos ifodasi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Dunyoning turli burchaklarida avj olayotgan keskin nizolar sharoitida Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik va taraqqiyot muhiti hukm surmoqda. Tabiiyki, bunday muhit o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi. Bu jarayonda O‘zbekiston tashqi siyosiy strategiyasining o‘rni va beqiyos hissasi bo‘lib, u tom ma’noda, mintaqa xalqlari o‘rtasida ahillik, birodarlik va yaqin qo‘shnichilik munosabatlarini rivojlantirish kabi oliy maqsadlarni ko‘zlaydi.

Tashqi siyosatning yuksak e’tirofi

Global dunyoda, jumladan, Yevroosiyo makonida O‘zbekistonning tashqi siyosiy vazni va mavqei nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan munosib e’tirof etilmoqda. Birgina misol sifatida Prezidentimiz tomonidan 2017-2022-yillarda BMTda ilgari surilgan 6 ta tashabbus qisqa muddat ichida jahon hamjamiyati tomonidan to‘liq qo‘llab-quvvatlandi.

“Markaziy Osiyoda mintaqaviy tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minlash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash”, “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik”, “Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish”, “Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish”, “Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash” hamda “Barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish” to‘g‘risidagi rezolyutsiyalar shular jumlasidan.

Ko‘rinib turganidek, 5 yil muddat ichida hech bir davlatning bu qadar ko‘p sonli tashabbuslari BMT tomonidan qo‘llab-quvvatlangan emas. Bu tashqi siyosiy tashabbuslar bo‘yicha BMT tarixidagi rekord ko‘rsatkich hisoblanadi.

O‘z navbatida, o‘tgan va joriy oylardagi e’tiroflarga nazar tashlasak, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga qo‘shgan ulkan hissasi uchun Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining oliy mukofoti — MDH faxriy nishoni hamda turkiy xalqlar oilasining birligini mustahkamlashga, turkiy mamlakatlarning manfaatlari va qarashlarini xalqaro maydonda faol ilgari surishga qo‘shgan ulkan hissasi uchun yuksak mukofot — “Turkiy dunyoning oliy ordeni” kabi oliy mukofotlar berilishi, shak-shubhasiz, O‘zbekistonning xalqchil va tinchliksevar tashqi siyosatiga berilgan ulkan baho va e’tirofdan dalolat.

Xulosa o‘laroq aytganda, xalq manfaatlari va tinchliksevarlik tamoyili O‘zbekiston tashqi siyosiy strategiyasining asosiy falsafasi hisoblanadi. Bunday strategiyamizning istiqboldagi muvaffaqiyati milliy manfaatlarni izchil ilgari surish, xalqchil, tinchliksevar va muvozanatlashgan tashqi siyosatni saqlab qolishga bevosita bog‘liq. O‘zbekiston esa ana shu strategiya yo‘lidan og‘ishmasdan harakat qilmoqda.

MUNOSABAT

KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR AMALIYLIGINI TA’MINLASHDAGI MUHIM FURSAT

Muxtabar HUSANOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, yuridik fanlar nomzodi

Farmonning e’tiborli jihati “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonunga muvofiq, yangi tahrirdagi Konstitutsiya kuchga kirguniga qadar amalda bo‘lgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar unga zid bo‘lmagan qismida qo‘llanilishi ko‘rsatilganidadir.

Xalqimizning yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va xohish-intilishlarini o‘zida mujassam etgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning so‘zsiz, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijro etilishini ta’minlash orqali, eng avvalo, farovonlik, ijtimoiy hayotning barcha sohalari takomillashuvi, davlatimizning dunyo hamjamiyatida nufuzi yuksalishiga erishiladi.

Har qanday islohot kuchli konstitutsiyaviy-huquqiy asosga tayansagina, ko‘zlangan strategik maqsad va samarali natijalarga yo‘l ochadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz jamiyat va davlat oldida turgan Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning ana shunday siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Undagi xalqparvar davlat qurish maqsadi kuchli parlament, ixcham va mas’uliyatli hukumat, mustaqil va adolatli sud tizimini barpo etishga qaratilganiga guvoh bo‘lish mumkin.

Konstitutsiyaviy islohotlarimiz yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilish bilan kifoyalanib qolmay, uning amaliyligi, xalqchilligini, fuqarolarimizning “Bu — mening Konstitutsiyam!” deya oladigan darajadagi maqomini bosqichma-bosqich amalga oshirish chora-tadbirlarini o‘z ichiga oladi.

Yangi tahrirdagi Bosh qonunimiz ijrosini ta’minlashga qaratilgan ilk hujjat Prezidentimizning 2023-yil 8-maydagi “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tad-

birlar to‘g‘risida”gi farmoni bo‘ldi. Hujjatda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni so‘zsiz va to‘liq amalga oshirish, unda mustahkamlangan ustuvor prinsiplarni yangi O‘zbekiston g‘oyasiga hamohang tarzda ro‘yobga chiqarish, davlat organlari faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo‘lga qo‘yish, har bir inson o‘z hayotida xalq Konstitutsiyasi ruhini yaqqol his etib turishini ta’minlashga qaratilgan vazifalar belgilandi.

Prezidentimizning 2023-yil 7-noyabrdagi “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi farmoni amaldagi qonunosti hujjatlarni Konstitutsiyamizga muvofiqlashtirish talabidan kelib chiqqan holda qabul qilingan bo‘lib, inson huquq va erkinliklarini samarali himoyalash, davlat organlari mas’uliyatini oshirishga yo‘g‘rilgani bilan ahamiyatlidir.

Farmonda, avvalo, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muvofiqlashtirish uchun Prezidentning ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi nazarda tutilmoqda. Ular quyidagilarda ifodalanadi.

Birinchidan, Sudyalar oliy kengashi raisi va a’zolarini, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorini hamda

Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi raisini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Oliy Majlis Senati tomonidan saylash tartibini belgilash. Bu parlamentning islohotlar samarasini amalga oshirishdagi roli kuchaytirilayotganidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyadagi davlat xizmatini o‘tash bilan bog‘liq cheklovlar qonun bilan belgilanishiga oid talabdan kelib chiqib, qonunosti hujjatlardagi bunday cheklovlarni bekor qilish. Ushbu norma davlat xizmatchilari huquqlarining qonuniy kafolatlari mustahkamlanishiga asos bo‘lib, huquqni qo‘llash amaliyotida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noaniqliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorini belgilashda insonning munosib turmush darajasini ta’minlash zaruratini hisobga olish. Bu davlatimizning insonparvarlik xususiyatlariga yorqin misol bo‘lib, bugun jahonda yuz berayotgan murakkab iqtisodiy munosabatlar jarayonida fuqarolarimiz turmush tarzi barqarorlashishiga huquqiy zamin vazifasini o‘taydi.

Farmonda inson huquq va erkinliklari qonuniy manfaatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasini tayyorlash jarayonida fuqarolar tomonidan kelib tushgan ko‘plab murojaatlarda aks etgan huquqiy munosabatlarga alohida e’tibor qaratilgani va ularning ijro mexanizmlari aniq ko‘rsatilgani mamlakatda inson huquqlari ustuvorligiga qaratilgan siyosat uzviyligini ta’minlaydi.

Vazirliklar, Bosh prokuratura va Oliy sudga 2024-yil 1-yanvarga qadar o‘zlariga biriktirilgan soha va tarmoqlar kesimida qonunosti hujjatlarni puxta xatlovdan o‘tkazgan holda ularni Konstitutsiyaga mazmunan muvofiqlashtirish bo‘yicha Adliya vazirligiga taklif kiritish vazifasi yuklatildi. Unga ko‘ra, mulk huquqining konstitutsiyaviy kafolatlarini ta’minlash, shu jumladan, mulkdor o‘z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emasligiga oid konstitutsiyaviy normadan kelib chiqib, ushbu masalalarni faqat qonunlar bilan belgilash masalasi nazarda tutilgan. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, amaliyotda fuqarolarning mulkka oid konstitutsiyaviy huquqini himoya qilishda ayrim kamchiliklar u yoki bu tarzda uchraydi. Fuqarolarning mulk huquqi konstitutsiyaviy kafolatlarini ta’minlashga qaratilgan bunday kompleks yondashuv mulkka oid nizolar kamayishiga ta’sir etadi.

Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq cheklanishi mumkinligi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy talab asosida barcha qonunosti hujjatlarning qayta ko‘rib chiqilishi fuqarolarning Bosh qonunimizda belgilangan maqomini oliy qadriyat sifatida yanada mustahkamlaydi.

Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerakligi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy norma asosida qonunosti hujjatlardagi huquqiy ta’sir choralarini qayta ko‘rib chiqish masalasiga e’tibor qaratilgani qilmishga nisbatan nomutanosib huquqiy ta’sir chorasi qo‘llanilishining oldini oladi, adolat ta’minlanishiga zamin yaratadi.

Uy-joy daxlsizligi huquqini ta’minlash, hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum qilinishi mumkin emasligiga oid konstitutsiyaviy normalardan kelib chiqib, qonunosti hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish vazifasi belgilanishi davlatning uy-joyga oid siyosatini namoyon etadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag‘larning erkin harakatlanishi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy normaga muvofiq, qonunosti hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish vazifasi belgilanishi mamlakatda iqtisodiy munosabatlar rivojlanishiga, xalq farovonligi ta’minlanishiga asos bo‘ladi.

Farmon bilan Adliya vazirligiga 2024-yil 1-fevralga qadar kiritilgan takliflar asosida qonunosti hujjatlarni yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish vazifasi yuklanmoqda.

Shu bilan birga, vazirlik va idoralar 2024-yil 1-yanvarga qadar o‘zlari qabul qilgan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni to‘liq xatlovdan o‘tkazib, ularni Konstitutsiyaga muvofiqlashtirish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rish vazifasi qo‘yilmoqda.

Konstitutsiyaga moslashtirish bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirib, zaruratga ko‘ra vazirlik va idoralarga ushbu masala bo‘yicha taqdimnomalar kiritib borish Adliya vazirligi zimmasiga yuklatilmoqda.

Farmonning e’tiborli jihati “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonunga muvofiq, yangi tahrirdagi Konstitutsiya kuchga kirguniga qadar amalda bo‘lgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar unga zid bo‘lmagan qismida qo‘llanilishi ko‘rsatilganidadir.

Shu bilan birga, vazirlik va idoralar rahbarlari quyidagi masalalar uchun shaxsan javobgar ekani belgilab qo‘yildi:

— o‘zlariga biriktirilgan soha va tarmoqlarda yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash;

— amaldagi va yangi ishlab chiqiladigan qonunosti hujjatlarda Konstitutsiyaga zid normalar aniqlanganda, ularni bartaraf etish bo‘yicha o‘z vaqtida zarur choralar ko‘rish;

— o‘zlariga biriktirilgan soha va tarmoqlarda Konstitutsiyada faqat qonunlar bilan tartibga solinishi nazarda tutilgan masalalar yuzasidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini o‘z vaqtida ishlab chiqish va hukumatga kiritish.

Shuningdek, farmon bilan parlament a’zolariga yangi tahrirdagi Konstitutsiyada qonun bilan tartibga solinishi belgilangan masalalarni qonunosti hujjatlardan chiqarish va qonun darajasiga ko‘tarish bo‘yicha ishlarni amalga oshirishda vazirlik va idoralarga uslubiy ko‘maklashish tavsiya etilgani islohotlar jarayonida parlamentning mas’uliyati oshib borayotganidan dalolatdir.

Yuqoridagi asoslar va omillar shuni ko‘rsatadiki, Prezidentimizning bu farmoni Konstitutsiya normalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilishi, amaliyligi, xalqparvar siyosat uzviyligini ta’minlashda, bosh qonunimizda mustahkamlangan ustuvor prinsiplarni ro‘yobga chiqarishda, davlat organlari faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda samarali yo‘lga qo‘yishda muhim huquqiy hujjat bo‘lib xizmat qiladi.

YANGI O‘ZBEKISTON
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

DOLZARB MAVZU

SUV TANQISLIGI MUAMMOSI YECHIMLARI

Yaqin-yaqingacha Yevropa va dunyoning qator rivojlangan davlatlarida bizga erish tuyulgan tejamkorlik masalasi bugun zarurat o‘laroq kundalik odatimizga aylanib bormoqda. Binobarin, umumjamiyat nuqtayi nazaridan bu mavzuda hali maqtanarlik natijaga erishmagan bo‘lsak-da, ko‘pchiligimiz oylik xarajatlarni qisqartirish maqsadida elektr energiyasi va tabiiy gaz kabi ta’minotdan imkon qadar tejab foydalanishga harakat qilyapmiz. Chunki ularni qancha ko‘p ishlatsak, hisoblagich shuncha ko‘p pul hisoblashi, xizmat uchun to‘lovni vaqtida qila olmasak, ulardan mosuvo bo‘lishimizni yaxshi bilamiz.

Vaholanki, bundan 25-30 yilning nariberisida oqshom hovlimizni yoritadigan lampochka kunduzi ham deyarli o‘chirilmasdi. Gazga munosabatimiz ham shunday edi. Bu boradagi isrofgarchilik shu qadarki, ushbu holatdan “Gugurtni tejash uchun gazni o‘chirmaganmiz”, degan hazilomuz mutoyiba paydo bo‘lgan.

To‘kinlik yaxshi, ammo isrof yomon, degan donolarimiz. O‘sha davrlarda to‘kinlik deya ko‘rilgan bu holat, aslida, uvol, isrof ekanini, afsuski, ancha kech anglab yetyapmiz.

Darhaqiqat, dunyodagi hamma narsa, shu jumladan, tabiiy zaxiralar ham o‘lchovli, ularning hajmi va qancha muddatga yetishining hisob-kitobi bor. Bir tomondan cheklangan zaxiralar, boshqa tomondan esa aholi soni oshishi va iqtisodiyot tarmoqlari rivoji hisobiga ularga bo‘lgan talab qator global muammolarni yuzaga keltiryapti.

Rivojlangan davlatlarda bu kabi muammolar ularning rivojlanish yo‘liga o‘tishi, boshqacha aytganda, ehtiyojlarning ortib borishi boshlangan paytlarda paydo bo‘lgan. Bu holat o‘sha davrlardan boshlab barcha sohalarda tejamkorlik masalasini kun tartibiga olib chiqqan.

Mamlakatimizda yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida boshlangan islohotlar aholi farovonligi va iqtisodiyotimiz rivojini yangi bosqichga ko‘tardi. Ushbu jarayonda karrasiga oshayotgan ehtiyojlar ma’lum yo‘nalishlarda haqli tanqislikni keltirib chiqarmoqda. E’tiborli jihati, yuzaga kelayotgan taqchillikni bartaraf etishning tizimli choralari ko‘rilyapti.

Ma’lumki, yurtimizda so‘nggi yillarda suv tanqisligi muammosi ko‘lami ortib boryapti. Bu bir tomondan, global iqlim o‘zgarishlari tufayli suv zaxiralari kamayib borayotgani bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomondan, agrar tarmoqdagi yo‘qotishlarda ko‘zga tashlanmoqda.

Jumladan, avvalo, zaxiralarga to‘xtaladigan bo‘lsak, xalqaro tashkilotlar tadqiqotlariga ko‘ra, 2040-yilga borib suv tanqisligiga eng ko‘p uchrashi taxmin qilinayotgan 33 davlat orasida O‘zbekiston ham bor. Mutaxassislar fikricha, 2050-yilgacha suv resurslari yurtimizning asosiy suv manbai hisoblangan Sirdaryo havzasida 5 foizgacha, Amudaryo havzasida esa 15 foizgacha kamayishi mumkin. Buning ilk alomatlari hozirdan sezilmoqda. Xususan, yurtimiz sharoitida so‘nggi 15 yilda yog‘ingarchilik miqdori 25 foizga qisqargani, yoz faslida esa juda issiq kunlar davomiyligi ortgani fikrimiz tasdig‘idir.

Suv tanqisligi muammosining ko‘lami ortgani sayin iqtisodiy zarari ham oshib borishi muqarrar. Buni davlatimiz rahbari joriy yil 14-15-sentabr kunlari Tojikiston poytaxti — Dushanbe shahrida o‘tkazilgan Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ta’sischi davlatlari rahbarlari kengashi majlisida aniq raqamlar misolida aytib o‘tdi. Jumladan: “Markaziy Osiyoda suv taqchilligi muammosi o‘tkir va muqarrar tus oldi hamda bundan buyon u tobora chuqurlashib boraveradi.

Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, Markaziy Osiyoning ayrim mintaqalarida 2040-yilga borib suv resurslariga bo‘lgan ehtiyoj uch barobar oshadi. Vaqt o‘tishi bilan iqtisodiy zarar yalpi mintaqaviy mahsulotning 11 foiziga yetishi mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra, hozirning o‘zidayoq mintaqa davlatlari suv resurslari taqchilligi va undan samarasiz foydalanish oqibatida yiliga 2 milliard dollargacha mablag‘ yo‘qotmoqda”, dedi.

Mana shunday murakkab bir sharoitda qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda isrofgarlik yuqoriligi ham muammo ko‘lamini oshiryapti. Ma’lumotlarga ko‘ra, respublikamizda bugungi kunda sug‘orishga yo‘naltirilayotgan 46 milliard kub metr suvning 60 foizigina dalaga yetib boryapti. Sug‘orish uchun yo‘naltirilgan suvning 40 foizi sug‘orish tarmoqlarida, 20 foizi esa dalaning o‘zida yo‘qotilyapti. Demak, buni keskin kamaytirish orqali vegetatsiya davrida kuzatilayotgan 8-10 milliard kub metrlik suv tanqisligini qoplash mumkin.

Prezidentimiz Qashqadaryo viloyatiga tashrifi doirasida 25-oktabr kuni viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda ham ushbu masalaga to‘xtalib, ekinlarni suv bilan ta’minlash masalasi yildan-yilga qiyinlashib borayotganiga e’tibor qaratdi.

Qayd etilganidek, bu muammo Qashqadaryo uchun ayniqsa dolzarb. Shunga qaramasdan, viloyatda suv tejovchi texnologiyalar 515 ming gektardan atigi 16 foizida joriy qilingan.

Shu bois, viloyatga 15 ta lazerli tekislash texnikasi olib kelinib, suv ta’minoti og‘ir bo‘lgan Koson, Mirishkor, Kasbi va Nishon tumanlarida dehqonlarga arzon va sifatli xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha vazifa belgilandi.

Sug‘orish tarmog‘ini bosqichma-bosqich yopiq tizimga o‘tkazib, 30 foiz suvni tejash mumkin. Mutasaddilarga kanallarni betonlash, qo‘shimcha nasos va texnika olish, “Paxtaobod” kanalini modernizatsiya qilish bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar berildi.

— Qishloq xo‘jaligida suv taqchilligini qanday kamaytirish mumkinligi bugunning eng dolzarb savollaridan biri bo‘lib turibdi, — deydi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti eksperti Komiljon Qo‘ziyev. — Ma’lumki, ushbu yo‘nalishda suv tejovchi texnologiyalardan foydalanish eng samarali yechim hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, yerlarni lazerli tekislash, ariq va kanallarni betonlashtirish, suv xo‘jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish hamda ekinlarni to‘g‘ri joylashtirish orqali ham yuqori tejamkorlikka erishish mumkin. Xususan, yaqinda Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida qishloq xo‘jaligi ekinlarini oqilona joylashtirish orqali suv tanqisligini kamaytirish bo‘yicha tadqiqot o‘tkazdik. Tadqiqot davomida Sirdaryo o‘zanidan Mirzacho‘lning ichki qismigacha bo‘lgan 200 kilometrga yaqin masofadagi yerlarni shartli ravishda 3 ta hududga bo‘ldik va qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirishda suvni ko‘p va kam talab qiladigan ekinlarning ulushini tahlil qildik.

Birinchi guruhdan joy olgan Sirdaryo viloyatining Boyovut, Guliston, Sayxunobod va Sirdaryo kabi daryo bilan tutash hududlaridagi jami ekin maydonining 54 foiziga suvni kam talab qiluvchi ekinlar joylashtirilgan. Bu ko‘rsatkich ikkinchi hududdagi Xovos tumanida 66 foizga, Mirzaobod tumanida esa 56 foizga teng. Sirdaryo o‘zaniga nisbatan 60-70 kilometr masofada joylashgan uchinchi guruhdagi tumanlarda esa suvni ko‘p talab qiluvchi ekin maydonining ulushi 41,9 foizdan 55,2 foizgacha. Qiziq jihati, daryo o‘zanidan uzoqlashgan sari suvni ko‘p talab qiluvchi ekin maydonining jamiga nisbatan ulushi ortib borgan.

Ekspertning fikricha, bu holat suvni ko‘p yo‘qotish hamda uni yetkazib berish xarajatlarining ortishiga sabab bo‘ladi. Bunday vaziyatda daryo o‘zanidan uzoqlashgan sari suvni ko‘p talab qiluvchi ekinlarni joylashtirish maqsadga muvofiq.

“Janubiy Mirzacho‘l” va “Do‘stlik” magistral kanallarida suv yo‘qotilishi 5-6 foizni, ichki ariqlarda esa 7-8 foizni tashkil etadi. Keyin suv dalalar orasidagi ariqlardan oqadi va bu tizimdagi shimilish va bug‘lanish hisobiga suv yo‘qotilishi 30 foizga yetadi.

— Shularni hisobga olgan holda daryo o‘zaniga eng yaqin yerga suvni ko‘p talab qiluvchi ekinlar, masalan sholi ekish kerak, — deydi ekspert. — Chunki bu o‘simlik gektariga 25 ming metr kubgacha suv talab qiladi. Shuncha miqdordagi suvni nisbatan olis hududga yetkazib berish esa ham suv yo‘qotilishiga, ham xarajat ortishiga olib keladi. Daryo o‘zaniga nisbatan yaqin tumanlarga esa paxta va sabzavotlarni joylashtirish kerak. Suvdan uzoqroq hududlarga esa g‘alla, no‘xat, mosh kabi suvni kam talab qiluvchi ekinlar, shuningdek, bog‘ va uzumzorlarni joylashtirish suv resurslaridan oqilona foydalanish imkonini beradi. Natijada daryo o‘zanidan uzoqlashgan sari sholichilik, sabzavotchilik, g‘allachilik, bog‘dorchilik ketma-ketligida ekin areallari shakllanadi hamda suv yetkazib berishdagi yo‘qotishlar 12 foizga qisqaradi.

Tahlillarga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi ekinlarini oqilona joylashtirish orqali yaqin 15 yilda Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida sug‘orishdagi suv sarfini 30 foizgacha kamaytirish mumkin.

Suv tanqisligi muammosini kamaytirish haqida gap borar ekan, qurg‘oqchil sharoitga mos yaratilayotgan ekin urug‘chiligiga ham to‘xtalib o‘tish joiz. Binobarin, seleksioner olimlar tomonidan respublikamizning turli tuproq-iqlim sharoitida qurg‘oqchilikka chidamli, serhosil navlar yaratish bo‘yicha tizimli izlanishlar olib borilmoqda.

Jumladan, Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutida paxtaning serhosil, tashqi muhitning keskin o‘zgaruvchan omillari, kasallik va zararkunandalarga chidamli, asosiysi, suv tanqisligiga bardoshli, tola sifati va chiqimi yuqori bo‘lgan “Sulton”, “Guliston” va “S-8290”, shuningdek, institutning Buxoro ilmiy-tajriba stansiyasida “Buxoro-6”, “Buxoro-102”, “Buxoro-8”, “Buxoro-10” kabi navlari yaratildiki, bu suv tanqis joylarda ham yuqori hosil olishga zamin yaratyapti.

Qishloq xo‘jaligi vazirligidan ma’lum qilishlaricha, mahalliy seleksionerlarimiz rossiyalik olimlar bilan hamkorlikda o‘ta ertapishar “Ultra” bug‘doy navini yaratdi. Ushbu navning turdoshlaridan afzallik jihati shundaki, o‘ta tezpisharligi uchun resurstejamkor hisoblanadi. Ya’ni 1-2-marta kam sug‘orilishi hisobiga 800-1500 metr kub suv iqtisod qilinadi. Bundan tashqari, oziqlanishda azotning yillik me’yori o‘rta pishar navlarga nisbatan 20-25 foiz kam.

Ma’lumki, suv sarfi bo‘yicha sholi ekinlar orasida yetakchilardan sanaladi. Suv tanqisligi sharoitida ushbu ekinni yetishtirishni cheklab bo‘lmaydi. Chunki guruch yurtdoshlarimizning asosiy iste’mol mahsulotlaridan biridir.

Ehtiyoj va imkoniyatlarimiz bir-biriga qarama-qarshi bo‘lib turgan mana shunday vaziyatda sholining suv kam talab qiluvchi navlari yaratilayotgani tahsinga sazovor.

Jumladan, Sholichilik ilmiy-tadqiqot institutida Janubiy Koreyaning AFACI markazi bilan hamkorlikda “O‘zbekiston Respublikasi iqlim sharoitlariga mos, serhosil, stressga chidamli sholi navlari yaratish” loyihasi doirasida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Loyiha 3 bosqichda amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo‘lib, joriy yilga mo‘ljallangan birinchi bosqich doirasida qurg‘oqchilikka chidamli, suv kam talab qiladigan, vegetatsiya davri qisqa sholi navlari kamida 10 ta nav mintaqalar sharoiti uchun tanlanadi. Kelgusi yil ikkinchi bosqich doirasida tanlangan navlarning ekologik sinovlari davom ettirilib, urug‘ligi ko‘paytiriladi. Uchinchi bosqich — 2025-yilda esa sholining qisqa muddatli va qurg‘oqchilikka chidamli navlarining katta maydonlarda urug‘chiligi tashkil etiladi.

Shuningdek, suv kam talab qiladigan sholi navlariga respublikamiz sharoitida egatlab sug‘orish usuli joriy etiladi. Bunda 1 gektar maydonga o‘rtacha 6-7 ming metr kub suv sarflanadi. An’anaviy usulda bu ko‘rsatkich 14 dan 23 ming metr kubgacha ekanini hisobga olsak, 2-3 barobar suv iqtisod qilinishi anglashiladi.

Umuman olganda, O‘zbekiston sharoitida suv tanqisligi muqarrarligidan kelib chiqib, suv tanqisligi muammosining oldini olish, oqibatlarini yumshatishga qaratilgan katta maqsadlar belgilanmoqda. Xususan, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga muvofiq, suv ishlatish samaradorligi 25 foizga oshirilib, qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydoni 2 million gektargacha, ushbu maqsadlarga erishish uchun esa suv tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarning yillik quvvati 300 ming gektarga yetkaziladi.

18,7 ming kilometr tuproq o‘zanli magistral va xo‘jaliklararo kanallarning beton qoplamali ulushi 46 foizga yetkaziladi. Melioratsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish natijasida sug‘oriladigan yerlarda sho‘rlangan maydonlarni 1,7 million gektargacha kamaytirish rejalashtirilgan.

Avazbek XUDOYQULOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

NUQTAI NAZAR

KARTOSHKACHILIK SOHASI RIVOJIGA NIMALAR TO‘SQINLIK QILMOQDA?

Kartoshka dunyodagi eng ko‘p iste’mol qilinadigan mahsulotlardan biri sanaladi. Ayni paytda u ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, “ikkinchi non” deya e’zozlanishi ham bejiz emas.

Odatda, biz qish-bahor oylari kartoshka zaxirasini yaratishga harakat qilamiz. Shu bois, bozorlarda uning narxi ham o‘zgarib turadi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish bo‘yicha Xitoy, Hindiston, Ukraina, Rossiya, Polsha, Niderlandiya, AQSH, Fransiya, Bangladesh yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Dunyoda yiliga o‘rtacha 376 million 875 ming tonnadan ziyod kartoshka yetishtiriladi. Fikrimizni yetakchi ikki davlat misolida davom ettiradigan bo‘lsak, bu yil Xitoyda 99 million 875 ming 686 tonna kartoshka yetishtirilishi qayd etilgan. Jami mahsulotni aholi jon boshiga hisoblaganda, 71,114 kilogrammga to‘g‘ri keladi. Hindistonda bu ko‘rsatkich mos ravishda 43 million 770 ming tonna va 32,75 kilogrammni tashkil qiladi.

Xo‘sh, bu borada O‘zbekistonning ko‘rsatkichlari qanday?

2022-yilda mamlakatimizda 3 million 441 ming 708 tonna kartoshka yetishtirilgan. 2023-yilda bu ko‘rsatkichni 4 million tonnadan oshirish reja qilingan. Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan kartoshka esa 2 million 679 ming tonnani tashkil qilgan. Takroriy ekilgan kartoshka hosili esa yig‘im-terim mavsumi to‘liq yakunlangandan so‘ng chorak yakuni bilan statistikada qayd etiladi.

Albatta, yetishtirilgan ushbu hosil barcha toifadagi xo‘jaliklarga, ya’ni klasterdan tortib, fermer xo‘jaligiyu aholi tomorqasiga qadar tegishli. Biroq vaziyatga real qaraydigan bo‘lsak, mahalliy mahsulot ichki ehtiyojni qondirishi qiyin. Shu bois, bozorda kartoshka narxini barqaror saqlash chetdan import qilingan kartoshka hisobiga amalga oshiriladi. Mutaxassislar bu holatni yurtimizdagi iqlimning kartoshka yetishtirish uchun qulay emasligi va kartoshka urug‘chiligi rivojlanmagani bilan izohlaydi.

Ma’lumotlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, yurtimizda ekish uchun tavsiya etilgan va qishloq xo‘jaligi ekinlari davlat reyestriga (2022-yilda) kiritilgan kartoshkaning 152 ta navi bo‘lib, shundan 19 tasi mahalliy ilmiy muassasalar tomonidan yaratilgan, qolgan 133 ta nav xorijiy davlatlarga tegishli.

Ayni sohada yetakchi hisoblangan Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutida kartoshkaning “To‘yimli”, “Aqrab”, “Diyora”, “Ko‘ksaroy”, “Serhosil”, “Pskom”, “Sarnav”, “Umid 2”, “Baraka”, “Feruza”, “Bog‘izag‘on” kabi navlari ixtiro qilindi va Respublikamizda ekish uchun tavsiya etilgan Davlat reyestriga kiritildi. “Toshkent ertakisi”, “O‘zbekiston qizili”, “Qizg‘aldoq” kabi yangi navlar sinovdan o‘tmoqda.

Soha mutaxassislari fikriga ko‘ra, urug‘chilikni rivojlantirish ko‘pgina omillarga bog‘liq. Shu sababdan urug‘lik kartoshka yetishtirish qimmatga tushadi. Ilmiy muassasalarda laboratoriyalarning yetishmasligi ham uzoq yillar soha olimlarining eng og‘riqli nuqtasi bo‘ldi. Shu sababli yurtimizda urug‘chilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizning tog‘ va tog‘oldi hududlarida kartoshkadan yuqori hosil olish imkoniyati mavjud, biroq pasttekisliklarda hudud iqlimi va tuproq sharoitiga e’tibor qaratib hosil yetishtirish lozim. Negaki, mutaxassislar yurtimizning issiq iqlim sharoitida kartoshka tez virusga chalinishi va har qanday yangi urug‘ning 2 yilda hosildorligi pasayishini ta’kidlaydi. Shu bois, qimmatga tushsa-da, urug‘lik tayyorlashni ko‘paytirish zarur. Chetdan urug‘ olib kelaverish masalaga yechim bo‘lmasligi aniq. Buning uchun hududlarda “in-vitro” laboratoriyalarini ko‘paytirib, hosildor kartoshka navlaridan virus va bakteriyalardan xoli urug‘larni yaratish lozim.

— Kartoshka urug‘chiligini yaxshi yo‘lga qo‘yish uchun harakat boshlangan, bunga hukumatimiz tomonidan zarur sharoitlar yaratib berilgan, — deydi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti direktori, professor Rustam Nizomov. — Jumladan, institutimiz biotexnologiya laboratoriyasida kartoshka urug‘chiligi virusdan xoli “in-vitro” usulida yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur laboratoriya 2022-yilda Prezidentimizning tegishli qaroriga muvofiq, Xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan rekonstruksiya qilinib, zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan.

Institutda mavjud imkoniyatlardan to‘g‘ri va samarali foydalanish hisobiga 2023-yilda 2,5 million dona super elita urug‘lik kartoshka yetishtirishga erishildi.

Umuman olganda, kartoshka urug‘chiligi bir nechta bosqichni o‘z ichiga oladi. Eng avvalo, urug‘ tozalanib, so‘ng virusdan xoli o‘simlik, undan keyin mikrotuganak, so‘ng mini tuganak yetishtiriladi. Urug‘chilikning bir nechta bosqichidan so‘ng elita, 1-reproduksiya urug‘lik yetishtirilib, katta maydonlarga ekiladi.

Bu o‘z-o‘zidan bo‘ladigan ish emas, albatta. Mutaxassis ta’kidlaganidek, sifatli urug‘lik kartoshka yetishtirish uchun, avvalo, urug‘chilik tizimini tashkil qilish lozim, mahalliy seleksiya va urug‘chilikni rivojlantirish va sohaga sarmoya kiritib, xususiy sektorni jalb etish kerak.

Shu bilan birga, hududlarda biotexnologiya laboratoriyalarini ko‘paytirish, u yerda ishlaydigan malakali kadrlarni tayyorlash zarurati bor. Qolaversa, yuqorida ta’kidlanganidek, sifatli urug‘lik material tayyorlash ham uzoq vaqt davom etadigan jarayon. Ayni yo‘nalishda mamlakatimizda ilk qadamlar tashlangan ekan, demak, harakatni tezlashtirmog‘imiz zarur. Zero, yurtimizda aholi soni yil sayin o‘sib borishining o‘zi ham bu boradagi islohotlarni jadallashtirishni kun tartibining asosiy vazifalaridan biri sifatida oldimizga qo‘ymoqda.

Anvar HAQBERDIYEV,
Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi axborot xizmati rahbari

MULOHAZA

QADRIYATLAR MASALASIDA MUROSASOZLIKNING VAQTI O‘TDI

Globallashuv tobora avj olib, davlatlarning hududiy yaxlitligi va milliy qadriyatlariga tahdidlar kuchayib borayotgan bugungi kunda ona tilimiz rivoji, qadr-qimmati va himoyasi haqida har daqiqada jar solishimizga to‘g‘ri kelyapti. Zero, milliy g‘ururimiz va orimiz asosi bo‘lgan tilimiz rivojiga to‘siq bo‘layotgan muammolarni hal qilishda amaliy ishlarga o‘tmas ekanmiz, ertangi holatimiz bugungisidan yaxshi bo‘lishiga kafolat yo‘q.

Alisher QODIROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosari, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi raisi

Buyuk ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek: “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak — millatning ruhini yo‘qotmakdur”. Demak, til millat borligiyu birligini, uning o‘tmishi va bugunini aks ettiruvchi qurol — qadriyat. Shu bois, xalqimiz uch ming yillik davlatchilik tarixida ona tili va qadriyatlarini mustahkamlab, asrab-avaylab, kerak bo‘lsa, himoya qilib keldi, ming-minglab jadid bobolarimiz va millat oydinlari bo‘lmish mo‘tabar onalarimiz timsolida jonini ham fido qildi.

Binobarin, biz — bugungi avlod ajdodlarimiz ruhi-poki oldida qarzdor ekanimizni anglashimiz, bunday mas’uliyat hissi, ayniqsa, til masalasida doimo bizni bezovta qilishi lozim. Garchi bugun ona tilimizda ellik milliondan ziyod kishi muloqot qilayotgani aytilayotgan bo‘lsa-da, uning nufuzini yuksaltirish mas’uliyati hech qachon zimmamizdan soqit bo‘lmasligini unutmasligimiz shart. Shuning uchun o‘zbek tilining dunyodagi boshqa tillar qatorida rivojlanishi uchun kurashishimiz, bu kurashni esa har birimizning tilimizga bo‘lgan munosabatimizdan boshlashimiz kerak.

Shu o‘rinda davlatimiz rahbarining dunyo minbaridan turib, sof o‘zbek tilida gapirayotgani bu masalada jamiyatga yo‘naltirilgan ishora bo‘lganini qayta-qayta takrorlayotganimiz bejiz emas. Ammo ana shunday da’vatlarga qaramay, tilga munosabat masalasida xasislik, g‘ariblik va hatto kaltabinlik qilayotganimiz bor gap. Tasavvur qiling: bolaning ilk davri uchun muhim hayotiy kashfiyoti: bog‘chada — muloqot, maktabda — bilim begona tilda bo‘lsa, yilning 365 kunini o‘zbek tili bayrami sifatida nishonlaganimizda ham tilimiz rivojlanmaydi, qadriyatimiz ildizlariga suv bormaydi, aksincha, uni zaiflik dunyosi o‘rab-chirmab boraveradi.

Achchiq haqiqat shundaki, begona so‘zlarni tushunmagan bola ilk davrdayoq muhim hayotiy ko‘nikmalarni ham boy berib, o‘zligiga xos bo‘lmagan begona xilqatga moslasha boshlaydi. Bunday holatda esa til ham, shu tilda so‘zlashayotgan bola ham o‘zini go‘yo begona olam vakilidek his etadi. Buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoy “…o‘z millatiga begona odamdan ham baxtsizroq kim bo‘lishi mumkin”, degan ekan.

Agar 30-40 yil avval xorijiy tillarda so‘zlashish kiborlik yoxud bilimdonlik sifatida ko‘ringan bo‘lsa, bugun til har qanday millat va elatning dunyo sahnasidan joy olishining birlamchi kalitiga aylandi. Siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy sohalardagi lug‘atlar, darsliklar, turli adabiyot va qo‘llanmalarning asli bilan tanishmoqchi bo‘lsang ham dunyo tan olgan biror tilni bilishing shart. Aks holda, yo‘llaring yopiladi... Shu ma’noda ham bugun til oddiy muloqot qurolidan rivojlanish quroliga aylandi. Bu holatni anglamaslik mumkin emas. Boshqacha aytganda, XXI asrga kelib, xorijiy tillarni o‘rganish fazilat sanala boshladi. Zotan, Alisher Navoiy aytganidek, til bilish fazilatdir. Lekin buyuk alloma ona tilini unutishni oqpadarlik deb ataganini ham unutmasligimiz kerak. Forobiy 70 ga yaqin tilni bilgani haqida ma’lumotlar bor. Shu nuqtayi nazardan, farzandlarimizning xorijiy tillarni o‘rganishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim. Ammo bu harakat va maqsadlar ona tilimiz mukammal o‘rganilganidan keyin amalga oshirilsagina maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bolaning ong osti, o‘zligiga uyg‘un ruhiy dunyosi shakllanadigan ilk davrini begona til muhitida o‘tkazish nafaqat pedagogik jihatdan xato, balki o‘zlikka nisbatan jinoyat hamdir. Bu talab nafaqat o‘zbeklar, balki boshqa millat vakili bo‘lgan vatandoshlarimiz uchun ham bir xil bo‘lishi lozim.

Ya’ni yurtimizda yashayotgan o‘zbek — o‘zbek, tojik — tojik, qozoq — qozoq, rus — rus tilida o‘z savodini, tilini chiqarsin. Ammo 4-sinfdan boshlab, hammaga o‘zbek tilini bilishni majburiy, qolgan tillarni esa ixtiyoriy o‘rganish uchun eng qulay sharoitlar yaratib berishimiz kerak. Bu jarayonda boshqa millat vakili bo‘lgan vatandoshlarimiz uchun bog‘cha va maktablar qurish, ularni mutaxassislar bilan ta’minlashni moliyalashtirmoqchi bo‘lgan manfaatdor davlatlarga esa imtiyozlar berishimiz kerak. Biz ham, o‘z navbatida, millatdoshlarimiz yashaydigan davlatlarda bog‘cha va maktablar ochib berish haqida o‘ylashimiz kerak. Millat, til va Vatan tanlanmaydi, ular Yaratganning

ne’matlaridir. Ularni avaylash, rivojlantirish va avlodlarga bezavol yetkazish esa muqaddas burchdir.

Afsuski, keyingi paytlarda buyuk qadriyatimiz bo‘lgan tilimiz rivoji yo‘lidagi muammolar ko‘paysa ko‘paymoqdaki, kamaymayapti. Agar dunyo tillarini o‘rgansak, tez o‘zgarayotgan texnologik dunyoda faol bo‘lgan tillar mavqei mustahkamlanayotganini ko‘ramiz. Ammo o‘zbek tili haqida bunday deya olmaymiz. Ayniqsa, ona tilimizning zamonaviy axborot makonida raqamlashtirish bilan uyg‘unligi juda pastligidan jiddiy xulosalar chiqarishimiz kerak.

Buning sababini begonalardan — tashqaridan emas, o‘zimizdan izlasak, to‘g‘riroq bo‘lardi. Aytmoqchimanki, til haqida gap ochildimi, darrov lug‘atimizdagi millatchi so‘zi esga olinadi, o‘z tilini himoya qilayotgan odam boshqa tilni kamsitayotganga chiqariladi. Buning oldini olish uchun esa yuqorida aytilganidek, davlat tiliga munosabatni o‘zgartirishimiz, tilni takomillashtirishga qaratilayotgan e’tibor va harakatlarni izchillashtirib, o‘n karra kuchaytirishimiz shart.

Davlat tili va uning rivoji, himoyasi haqida gap ketganda maktablarimizdan misol keltirgim kelaveradi va bu bejiz emas. Mana bir misol: bugungi kunda Toshkent shahri maktablarida 400 mingga yaqin boshlang‘ich sinf o‘quvchisi bor, ularning 250 mingga yaqini rus tilida ta’lim olmoqda. E’tibor bering, bu o‘ylab ko‘radigan raqam. Ana shu 250 mingning 80 foizi, afsuski, o‘zbek. Ayting, qanday ota-onaki, farzandi 1-sinfdan o‘z qadriyatiga teskari, ongu tafakkuri, o‘lchov mezonlari va milliy madaniyatiga zid bo‘lgan tilda savod chiqarishiga yo‘l qo‘yib beryapti. Agar bunga bir-ikki oilaning muammosi deb qarasak, katta xato bo‘ladi. Bu jamiyatimiz muammosi. Tilni yo‘qotish, unga befarqlik ham aynan shu nuqtadan boshlanyapti, aslida. Biz farzandlarimiz rus tilini o‘rganishiga qarshi emasmiz. Rus tili Tolstoy va Pushkindek daho adiblar, shoirlar tili. Biz, albatta, ularni, ular ijodini yaxshi ko‘ramiz. Lekin gap tilimiz, milliy qadriyatlarimizni saqlab qolish haqida ketayotgan bir paytda biz bu holatga nisbatan qarashlarimizni o‘zgartirishimiz kerak deb o‘ylayman.

Rus, ingliz, arab va fors yoki boshqa tillarning barchasi bugun millatni, madaniyat va iqtidorni rivojlantirishga xizmat qiladi, albatta. Birgina arab tilini olaylik. Bu til e’tiqodimiz bilan bog‘liq, fors, rus, turkiy tillarda esa tariximiz bitilgan. Lekin bu tillar biz uchun har qancha muhim bo‘lmasin, bolalarimiz, avvalo, ona tilimizda savod chiqarib, keyin boshqa tillarni o‘rganishi kerak. Bu esa ta’lim tizimi hamda qonunchilikda yo‘l qo‘yilgan xatodir. Chunki “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda ta’lim tilini tanlash ota-onalar ixtiyorida, deb belgilab qo‘yilgan. Ayrim ota-onalar esa go‘yo farzandi kelajagini o‘ylab ular boshqa tilda savod chiqarishiga yo‘l qo‘yib bermoqda. Bu shaxsning qonuniy huquqi emas, bu mamlakat oldidagi, qadriyatlarimiz oldidagi majburiyat sifatida talqin qilinishi va ta’lim tili milliy qadriyati va millatidan kelib chiqqan holda tanlanishiga alohida urg‘u berilishi kerak deb o‘ylaymiz.

Yana bir muhim gap. Ayni paytda ko‘pgina banklarimiz o‘z mijozlariga rus tilida axborot taqdim qilishda davom etyapti. Bu “Davlat tili haqida”gi qonunni qo‘pol ravishda buzish demakdir. Bu yerda nafaqat o‘zbek tiliga, balki rus tiliga ham hurmatsizlik ko‘rsatilmoqda. Chunki rus tili hech qachon lotin grafikasida yozilmaydi. Ya’ni aksariyat biznes tuzilmalarimiz lotin grafikasida rus tilida axborot tarqatish orqali har ikki tilga nisbatan ham hurmatsizlik qilyapti. Eng yomoni, shu mamlakat hududida ishlab turib, xalqining xohish-irodasi bilan qabul qilingan qonun talablarini qo‘pol ravishda buzyapti. Nazarimda, bugun shunday holatlarga loqayd munosabatda bo‘layotgan Monopoliya qo‘mitasi kabi tashkilotlar ham bundan tegishli xulosalar chiqarishi kerak.

Bas, shunday ekan, qanday bo‘lmasin amaldagi qonunlar ijrosining qat’iy ta’minlanishiga erishishimiz kerak. Davlat tili haqidagi hamda “Reklama to‘g‘risida”gi qonunlar so‘zsiz bajarilishi, tilga e’tiborsiz, loqayd shaxslarga nisbatan esa qat’iy jazolar belgilanishi lozim. To‘g‘ri, afsus bilan aytishim lozim, til bilan bog‘liq qonunlarimizda juda yuqori talablar qo‘yilgan, ammo ularning ijrosiga kelganda mas’uliyatni unutyapmiz.

Mana bir misol. “Reklama to‘g‘risida”gi qonunda firma nomlari, reklama yozuvlari qanday yozilishi aniq va lo‘nda, hatto santimetrlarigacha belgilab qo‘yilgan bo‘lsa-da, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda reklamada davlat tilini ishlatmaganlik uchun hech qanday javobgarlik belgilanmagan. Bunday ziddiyat bizni huquqiy nigilizmga yetaklashi barobarida tilimiz “fidoyilari” uchun qo‘l kelmoqda, deyish mumkin.

To‘g‘ri, tashqi reklama va yozuvlar bilan bog‘liq xatolar sekin-asta tuzatilyapti. Biroq elektron axborot makonida davlat tili ochiqdan-ochiq “inkor” qilinayotganiga endi chek qo‘yilmasa, qonunlarga nisbatan ham ishonchsizlik paydo bo‘la boshlaydi.

Ha, O‘zbekiston ko‘p millatli mamlakat. Shuning uchun ham unda har bir millat va elatning tili, urf-odat va an’analari qadrlanyapti, qo‘llab-quvvatlanyapti. Ammo negadir davlat tili masalasi ko‘tarilsa, ijtimoiy makonning “Nima, O‘zbekistonda boshqa millat, boshqa tillar yo‘qmi”, degan nidolari yangray boshlaydi.

Qo‘limizni ko‘ksimizga qo‘yib aytaylik va tan olaylik: xalqimiz hech qachon millatchi bo‘lmagan, ayniqsa, til borasida. Til millatchiligi — pastkashlik. Tillarni yaxshi ko‘rib, hurmat qilish, ularni rivojlantirish, o‘rganish odati otameros odat bizga.

Ammo aholimizning 80 foizdan ko‘pi o‘zbek ekan, davlat tili bilan bog‘liq har qanday norozilik sun’iy ravishda yuzaga keltirilayotganini anglash uchun katta aql talab etilmaydi.

Shu o‘rinda yana bir misol keltirsam. Bugun xorijdan kirib kelayotgan zamonaviy uskunalar, tovarlardan foydalanish bo‘yicha qozoq, qirg‘iz, hatto turkman tillarida tushuntirishlar bor. O‘zbek tilida esa yo‘q.

Xo‘sh, kim bunga javob beradi, nega bu masala yechimi hanuzgacha paysalga solinyapti? Bu jarayonni nazorat qilish uchun mutasaddilarga yana qanday huquqlar kerak? Ayrimlar bu masalada Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda jazo nazarda tutilmaganini aytyapti. Ertaga bunga ham yechim topamiz. Lekin taklif etilayotgan jarima bilan muammo hal etilmasligini nihoyat tushunib yetishimiz kerak emasmi?

Bu ishlarga Davlat tilini rivojlantirish departamenti ham mas’ul bo‘lishi kerak. Albatta, Vazirlar Mahkamasi huzurida bunday departamentning qayta tashkil etilganining o‘zi katta qadam. Ma’muriy islohotlar davrida til departamentining qisqarishiga “Milliy tiklanish” birinchilardan bo‘lib e’tiroz bildirgan edi. Aksincha, departament faoliyatini zamonaviy tahdidlar, talablardan kelib chiqib yanada kengaytirish lozim. Chunki bugun natijaga erishish uchun axborot maydoni hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lyapti va afsuski, bu jarayonda imkoniyatlarni boy beryapmiz.

Yana bir gap. Bugun farzandlarimiz tili xorij multfilmlari orqali chiqyapti. Bu bizda o‘zbek tilidagi multfilmlar, ko‘rgazmali lavhalar, kitob va rasmli kitoblar deyarli yo‘q, degani.

Nazarimda, til departamenti shu vazifalar bilan ham izchil shug‘ullanishi lozim. Bu borada qonunchilikda qanday o‘zgarishlar qilish kerak, yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarni bartaraf qilishga nimalar xalaqit beryapti?

Xulosa o‘rnida aytish joizki, til bugun nafaqat muloqot vositasi, balki har qanday millatning oliy qadriyatiga aylandi. Til ayni paytda siyosat hamdir. Agar qaysidir davlatni iste’molchiga yoki o‘zingizning mahsulotingiz, g‘oya va tafakkuringiz gullab-yashnaydigan hududga aylantirmoqchi bo‘lsangiz, eng avvalo, o‘sha xalq tilini bilish orqali faoliyatingizni rivojlantirishingiz mumkin bo‘ladi. Xuddi shunday talab O‘zbekistonda ham oddiy talabga aylanishi kerak.

Bolaning ongi, dunyoqarashi til orqali shakllanadi va rivojlanadi. Shuning uchun maktablarda birinchi sinfdan boshlab davlat tiliga ustuvorlik berilishi shart, deb hisoblaymiz. 4-5-sinfdan boshlab esa bolalarimiz boshqa tillarni o‘rgansin. Til qachon rivojlanadi, qachonki millat gaplashayotgan til qonun tiliga, ilm-fan, texnika tiliga aylansa. Ya’ni til kundalik hayotda keng qo‘llanadigan tilga aylansagina unga ehtiyoj bo‘ladi. Aks holda, tilimizni rivojlantiramiz deb qancha kuyinmaylik, besamar bo‘laveradi.

Shuni qat’iy anglab olishimiz kerak: bugun yangi O‘zbekiston qanday tez, izchil o‘zgarib borayotgan bo‘lsa, tilimiz ham shunga mutanosib ravishda o‘zgarishi, kuchayishi kerak. Bunga esa hamma — deputatdan tortib, eng chekka qishloqda faoliyat yuritayotgan ustoz va pedagoglarimizgacha birdek mas’uldir.

TIBBIYOT

UMIDLAR HAQIQATGA AYLANMOQDA

Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar, moddiy-texnik bazaning zamonaviylashishi va aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifati oshishi xavfli kasalliklarning erta oldini olish, oqibatlarini kamaytirish hamda vaqtida davolash imkonini bermoqda.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda dunyoda saraton kasalligiga chalinganlar soni ortib bormoqda va u tobora yosharmoqda. Yurtimizda ham mutaxassislar bu ma’lumotni tasdiqlaydi. Boshqa xavfli o‘smalar kabi saraton ham odatda o‘zi o‘rnashgan joydagi to‘qimani yemirishi, inson organizmining umumiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, bemor haddan ortiq ozib ketishi bilan xavfsiz o‘smalardan farq qiladi. Inson yiliga ikki marta tibbiy ko‘rikdan o‘tib tursa, salomatligida bir oz salbiy o‘zgarishni sezdimi, shifokorga murojaat qilsa, bu kabi kasalliklar erta aniqlanib, zarur muolajalar orqali bemor butunlay darddan xalos bo‘lishi mumkin.

Shu maqsadda Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Navoiy viloyati filiali maslahat poliklinikasida chuqur tekshiruv va aniq tashxis, to‘g‘ri muolaja yo‘lga qo‘yilgan. 50 qatnovli poliklinika fuqarolarga tibbiy xizmat ko‘rsatmoqda. Boisi, onkologik kasalliklar, ularning sababi va og‘ir asoratlari, qolaversa, davolash muolajasi haqida tushuncha va tibbiy madaniyatga ega bo‘lgan fuqarolar murojaati ko‘paymoqda.

Umumiy 95 o‘ringa mo‘ljallangan filial jarrohlik, kimyoterapiya, radiologiya va palliativ bo‘limlaridan iborat.

— So‘nggi yillarda shifoxonamiz eng zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta’minlandi, — deydi Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Navoiy viloyati filiali direktori Mamat Mavlonov. — Viloyatimizda nurlantirish apparati yo‘q edi va bu jihoz ham yaqinda keltirildi. Yil oxirigacha shu kabi yangi apparatlar yana olib kelinishi mo‘ljallangan. Bu esa aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatilishida muhim omil bo‘lmoqda. Albatta, tibbiy jihozlar yangilanishi ular bilan ishlaydigan malakali mutaxassislarga ham

ehtiyoj tug‘diradi. 6 mutaxassisimiz Rossiyada malaka oshirib qaytdi, 2 nafari yil yakunigacha Xitoy va Turkiyada malaka oshirishi ko‘zda tutilgan. Shu bilan birga, hozir bemorlarni maxsus va kimyoviy dorilar bilan ta’minlash 92 foizga yetkazildi.

Ayni vaqtda viloyatda 35-65 yoshdagi ayollar 163 mingdan ziyodni tashkil etib, ularning barchasi skrining tekshiruvdan o‘tkazilgan. Tibbiy ko‘riklarda 119 ayolda sut bezi, 37 nafarida bachadon bo‘yni saratoni kasalligi aniqlanib, ular kerakli davo muolajalar olmoqda.

Tibbiyot maskaniga 2022-yilda zamonaviy ultratovush apparati olib kelingani aholi, ayniqsa, ayollarda uchraydigan onkologik kasalliklarni erta aniqlab, o‘z vaqtida davo muolajalarini boshlashda yaxshi samara beryapti. Shuningdek, o‘tgan yili shifoxonaning 30 o‘rinli jarrohlik bo‘limiga mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan 200 million so‘mga jarrohlik stoli xarid qilingach, bemorlarga xizmat ko‘rsatish sifati yanada oshdi. Viloyat hokimligi tashabbusi bilan filial uchun 15 milliard so‘mga yangi zamonaviy UTT va zamonaviy rentgen apparatlari xarid qilindi. Qiymati 2 milliard so‘mlik, 20 o‘ringa mo‘ljallangan radiologiya va MRT binosi foydalanishga topshirilishi bemorlar uchun juda qulaylik yaratdi. Boisi, Buxoro viloyati va Toshkent shahridagina bunday muolajalar o‘tkazilar edi.

Ayni vaqtda jarrohlik bo‘limida onkologik kasalliklarning barcha turida amaliyot o‘tkazish imkoniyati mavjud. Boshqa turdagi kasalliklardan farqli o‘laroq, onkologik xastalikka chalingan bemorlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri jarrohlik stoliga olinmaydi. Zarur tekshiruv va muddatli muolajalardan so‘nggina amaliyot o‘tkaziladi. Jonlantirish bo‘limi ham jarrohlik amaliyotidan chiqqan bemor oyoqqa turib ketishi uchun zarur bo‘ladigan barcha sharoitlarga ega.

Jarrohlik amaliyoti va undan keyingi kimyoterapiya bemorning sog‘ayishi uchun muhim muolaja. Filialning 45 o‘rinli kimyoterapiya bo‘limida davolanayotgan bemorlarning nigohlarida umidsizlik emas, aksincha, hayotga qiziqish, sog‘ayib ketishga ishonchni ko‘rasiz.

48 yoshli Gulnora Ashurova misolida qaraydigan bo‘lsak, 2 yil avval o‘ta og‘ir ahvolga tushib qolgan, hatto o‘limni bo‘yniga olib, umidlari butunlay so‘ngan ayol Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Navoiy viloyat filialida shifo topdi. Konimexlik Asiya Usmonova ham jarrohlik amaliyotini boshidan o‘tkazib, og‘riqlardan xalos bo‘lib, kasallik ustidan g‘alaba qozongan ayollardan.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyoda sut bezi saratoniga chalinish ko‘paygan. Uni erta aniqlash va samarali muolaja qilish uchun 2017-yildan buyon filialda mammografiya apparati ishlatiladi. Joriy yilda esa har bir viloyat, jumladan, ushbu shifoxona ham mobil mammografiya apparati bilan ta’minlandi. E’tiborlisi, mazkur apparatda tekshiruv va tashxislash respublika miqyosida markazlashgan platforma orqali amalga oshiriladi. Barcha viloyatlardagi jarayonlar tajribali mutaxassislar ishtirokida chuqur o‘rganilgan holda kechadi. Bu kasallikni erta aniqlash va to‘g‘ri tashxis qo‘yish orqali bemorni davolashda yaxshi natijaga erishish uchun yangicha yondashuvdir.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

BOQIY MEROS

ALACHANING ASLINI *asl yigit kiyadi*

Sattor QURBONOV,
“Jayhun” folklor-etnografik xalq ansambli rahbari

Boysun yurtimizning eng qadimiy madaniyat o‘choqlaridan biri ekani arxeologik topilmalar va yozma tarixiy ma’lumotlarda o‘z tasdig‘ini topgan. Shu bois, Boysun madaniy muhiti 2001-yilda UNESCOning Insoniyatning og‘zaki va nomoddiy madaniy merosi, 2008-yili esa Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatlariga kiritildi. Bu, o‘z navbatida, Boysun xalq madaniyati va uning badiiy an’analarini saqlash va yozib olish hamda keng ko‘lamda ilmiy tadqiq etish jarayoniga sabab bo‘ldi.

Madaniy aloqalar chorrahasida joylashgani uchun bu hududda aholining madaniy va ma’naviy salohiyati baland bo‘lgan. Tog‘li hududda joylashgan Boysunda qadimiy qo‘shiqlar, raqslar va udumlar saqlanib qolishi sababi bu yerning eli o‘tmishdan ma’rifat va san’atga ishqiboz bo‘lganidan, desak xato qilmaymiz. Bu haqda ko‘plab yozma manbalar ham guvohlik beradi.

1900-yilda rus olimi S.Maslovskiyning “Zakaspiyskoye obozreniye” gazetasida bosilgan maqolasida tog‘li hududda qishloq borligi, bu yerda bolalar go‘dakligidanoq sozandalik, xonandalik, masxarabozlik va raqs borasida “pir”lardan saboq olishi, xalqning qadimiy san’ati shu yo‘sinda saqlanib, avloddan avlodga meros bo‘lib kelayotgani yozilgan.

Ota kasbiga hurmat Sharq xalqlarining axloqiy aqidalaridan biri. Qadimdan qishloq va shaharlarda zargarlar, degrezlar, temirchilar, misgarlar mahallalari qatori san’atkorlar mahallasi ham bo‘lgan. Tarixiy buhronlar xalqning taqdiriga qanday ta’sir qilgan bo‘lsa, uning madaniyati va san’atiga ham shunday ta’sir ko‘rsatdi.

Baqtriya, So‘g‘diyona, Xorazm kabi madaniyat o‘choqlarida kamolga yetgan iste’dodli musavvir, xonanda, masxarabozlar, haykaltaroshlar, raqs ustalari bu san’at turlari tazyiqqa uchramagan mamlakatlarga chiqib ketdi. O‘z yurtida qolgan san’atkorlar esa tog‘ qishloqlarida hayot kechirib, san’atkorlar qishloqlarini yaratdi va ular qadimiy san’atimiz saqlanib qolishida katta o‘rin tutdi. Bunday san’atkorlar qishloqlari Surxondaryo viloyatida ham bor edi.

Boysun tumanidagi Katariguzar, Oltinsoy tumanidagi Katta va Kichik Vaxshivor, Sariosiyo tumanidagi Zevar, Denov tumanidagi Sina va O‘shor qishloqlari

qadimdan san’atkorlar qishlog‘i deb tan olingan va bu an’ana hozirgi kungacha davom etib kelmoqda.

Boysun musiqa folklori aholining ijtimoiy-maishiy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga bog‘liq holda asrlar davomida shakllandi. U o‘zbek xalqi musiqa madaniyati elementlarini singdirgan holda insonning oilaviy hayoti hamda xo‘jalik faoliyati, dini va tabiiy hodisalarga daxldor turli vazifalarni o‘zida aks ettiradi. Folklor san’ati ijrochilari bo‘lmish xonanda va sozandalar ijodlarida estetik, mo‘jizali, fusunkor, ijtimoiy va kommunikativ vazifalarni birlashtirgan. Chunonchi, mavzu jihatdan xilma-xil marosim va mehnat qo‘shiqlari, dostonlar, cholg‘u kuylari ular ijodining asosi hisoblanadi.

Boysunning taqvimiy mehnat kunlarida aytiladigan qo‘shiqlari “Yilboshi”, “Navro‘z keldi”, “Navro‘z ayyomi”, “Sumalak” kabilardir. Mehnat qo‘shiqlariga “Shoxmoylar”, “Qo‘sh haydash”, “Don sepdim”, hosil yig‘ish qo‘shiqlariga “Xo‘p mayda”, “Oblo baraka” kiradi. Shuningdek, tabiat hodisalari bilan bog‘liq qo‘shiqlar ham ko‘p. Quyoshli kunda “Oftob chiqdi”, yomg‘ir kerak bo‘lganda “Sust xotin”, qor yoqqanda “Qor keldi” va shamol zarur bo‘lganda “Choy momo”, “Mirhaydar bobo” qo‘shiqlari yangraydi. Ramazon oyida “Yo ramazon” yoki “Yo rabbiman” qo‘shiqlari sho‘x-quvnoq ohanglar bilan xalq musiqa ijodining o‘ziga xos shaklini ifoda etadi.

Boysunning zamonaviy to‘y qo‘shiqlari turkumi rango-rang va xilma-xil. Ularda musiqa, xalq o‘yinlari, raqslar va tomoshalar omixta bo‘lib ketgan. Har biri, avvalo, xalq ommasi e’tiborini an’anaviy yodaki san’atga, zamonaviy musiqa ijodigagina emas, balki “zehn bilan tinglash”ni tarbiyalashga qaratilgan.

Faqatgina ayollar emas, goho erkaklar ham ijro etadigan “Alla”lar ko‘pincha yakka tarzda badiha shaklida namoyon bo‘ladi. Cho‘zib aytiladigan ishqiy qo‘shiqlar ham o‘ziga xos. Masalan, cholg‘u jo‘rligisiz “og‘ir ohangda” aytiladigan, tuyaning qadam tashlashini eslatuvchi karvonchilar qo‘shig‘i “Tuya qadam” shular jumlasidandir.

Boysun musiqasida barcha cholg‘u guruhlari — torli, puflab chalinadigan va zarbli cholg‘ular ishtirok etadi. Ishqalab chalinadigan torli cholg‘u sozlari ham boy va rang-barang. Tut, yong‘oq, o‘rik, nok yog‘ochlaridan turli kattalikda yasalgan do‘mbira, dutor, kalta dutor, chiltor, torli-zarbli cholg‘u — temir chanqovuz (ilgari uning yog‘och va suyakdan ishlangan turlari ham bo‘lgan) eng keng tarqalgan cholg‘ulardir. Zarbli cholg‘ular orasida doira yoki dapp eng ommabopi. Bu musiqa cholg‘ulari Duoba, Omonxona, Pulhokim, Sayrob, Qo‘shkak, Sariosiyo, Dashtig‘oz qishloqlarida, Boysunning o‘zida sozgar ustalar tomonidan yasaladi, ular Boysun cholg‘u kuylari an’analari davomchilari hisoblanadi.

> **Boysun musiqa san’atidagi har bir qo‘shiq yoki kuy xalq tarixi, hayoti va turmushi, o‘y va orzulari, dunyoqarashi va psixologiyasi timsolidir. Hozirgi kunda ham “Boysun” folklor-etnografik xalq ansambli, “Quralay” bolalar folklor-etnografik namunali xalq ansambli, Qo‘shkak, Avlod, Dashtig‘oz kabi qishloqlarning xotin-qizlar ansambllari misolida folklor jamoalar yashashda davom etmoqda. Ular milliy an’analar va musiqiy-she’riy folklorni saqlab qolish va targ‘ib qilish bo‘yicha talay ishlarni bajarmoqda.**

Boysun musiqa san’atidagi har bir qo‘shiq yoki kuy xalq tarixi, hayoti va turmushi, o‘y va orzulari, dunyoqarashi va psixologiyasi timsolidir. Hozirgi kunda ham “Boysun” folklor-etnografik xalq ansambli, “Quralay” bolalar folklor-etnografik namunali xalq ansambli, Qo‘shkak, Avlod, Dashtig‘oz kabi qishloqlarning xotin-qizlar ansambllari misolida folklor jamoalar yashashda davom etmoqda. Ular milliy an’analar va musiqiy-she’riy folklorni saqlab qolish va targ‘ib qilish bo‘yicha talay ishlarni bajarmoqda.

“Boysun” ansambli bobolarimiz, momolarimiz qalb qo‘rini berib kuylagan qo‘shiqlarni nafaqat ijro etib, balki unga hozirgi zamon ruhini ham qo‘shib O‘zbekiston badiiy san’atida o‘ziga xos uslub yaratgan folklor maktablaridan biridir. Ansambl ijodi yillar davomida sayqallanib, havaskor jamoadan professional darajaga chiqib oldi.

“Boysun” ansambli o‘z repertuarida qadimiy etnik turmush bilan bog‘liq urf-odatlar, o‘ziga xos marosim va udumlarning badiiy-g‘oyaviyligini sahnaviy ko‘rinishlar orqali yanada to‘ldirib, sayqal berayotir. Jamoa xalq qo‘shiqlari, laparlar, o‘lan va yor-yorlar, alla aytishuvlarining ayrimlarini sozsiz, ayrimlarini milliy musiqa cholg‘ulari yordamida yoki qadimiy milliy-an’anaviy cholg‘ular — chanqovuz, sibizg‘a, xushpullak, qovoqnog‘ora, loyko‘za nog‘ora, ducho‘ba, do‘mbira jo‘rligida ijro etib kelmoqda.

“Boysun” folklor-etnografik xalq ansambli dasturlarida mehnat qo‘shiqlari muhim o‘rin egallaydi. Bu tur qo‘shiqlarda hunarmandlar qo‘l mehnati bilan yaratilgan mahsulotlar maqtalgan. Jumladan, kosib hunarmandlar tomonidan Boysun milliy matosi bo‘lgan alacha, janda, alifbo matolarini to‘qish jarayonida aytiladigan qo‘shiqlar bo‘lgan:

To‘q-to‘q qilib do‘konin, bobom matoh to‘qigan,
Alacha, janda, shoyi, aslin ular to‘qigan.
Alachayu alacha, bir jandayu bir parcha,
To‘q-to‘q qilib to‘qiyver, xaridori kelguncha.
Alachaning aslini asl yigit kiyadi,
Alacha kiymaganning yurak bag‘ri kuyadi.

Xulosa qilib aytganda, Boysun madaniyati va san’ati, “Boysun” folklor-etnografik xalq ansambli va “Quralay” bolalar folklor-etnografik xalq ansamblining o‘ziga xos qiyofaga ega bo‘lishi sababi xalqimizning turmush tarzini, e’tiqodini, milliy ruhiyatini, xarakterini chuqurroq ochib bera olishidadir. Bu yo‘nalishdagi ijodning sayqallanib boraverishi milliy udum, urf-odat, marosimlarga oid qo‘shiqlar umrboqiyligini ta’minlaydi.

EL AZIZ, INSON AZIZ

MEHNATDAN QADR-QIMMAT VA E’ZOZ TOPIB

Abror OTABOYEV,
O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasining Farg‘ona viloyati kengashi bo‘lim mudiri

Bugungi davr mehnatkashlar manfaatini eng oliy qadriyat, deb bilgan O‘zbekiston kasaba uyushmalari oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Keyingi yillarda ushbu tizimga davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratilishi natijasida kasaba uyushmalari nufuzi yanada oshdi. Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak, joriy yil boshidan buyon Farg‘ona viloyatida 700 dan ortiq korxona, tashkilot hamda yangi tadbirkorlik subyektlarida kasaba uyushmasi xizmati tashkil etildi.

Oldimizga qo‘yilgan ulkan va ezgu vazifalarni amalga oshirish, “El aziz, inson aziz” degan g‘oyani yurtimizdagi har bir korxona va tashkilotda qaror toptirish, mehnatni farovonlik, baxt manbaiga aylantirish ko‘p jihatdan kasaba uyushmalarining samarali faoliyatiga bog‘liq. Shu yilning o‘zida 7 ming 100 nafar ishchi-xodim kasaba uyushmalari tasarrufidagi sihatgohlarda sog‘lomlashtirildi. Ularning 265 nafari ijtimoiy sug‘urta mablag‘lari hisobidan bepul dam oldi.

Ayniqsa, yosh avlodga munosib ta’lim-tarbiya berish, sog‘lomlashtirish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar ko‘lami kengayib, “Bolalarni dam oldirish va sog‘lomlashtirish departamenti” tashkil etildi. Viloyatdagi 8 ta bolalar oromgohi departament tasarrufiga o‘tkazilib, kichkintoylarning maroqli dam olishi bilan bog‘liq zarur shart-sharoitlar yaratib berildi. Joriy yil yozgi sog‘lomlashtirish mavsumida esa Farg‘ona viloyatidagi 11 mingdan ziyod bolajon yozgi ta’tilni maroqli o‘tkazdi.

Keyingi yillarda mehnatkashlar manfaati, haq-huquqlarini tiklash borasidagi ishlar ko‘lami yanada kengaydi. Yil boshidan buyon 165 nafar ishchi-xizmatchining mehnatga oid buzilgan huquqlari kasaba uyushmalari orqali tiklandi, 3 milliard so‘mga yaqin ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar aybdorlardan undirib berildi. Korxona-tashkilotlarda xizmat qilayotgan 27 mingdan ziyod mehnatkashning respublikamiz va viloyatimizdagi diqqatga sazovor joylarga sayohati tashkil etildi.

Fuqarolik jamiyatining faol instituti sifatida kasaba uyushmasi “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarning muammolarini hal qilish va qo‘llab-quvvatlashda jamoatchilik nazoratini olib bormoqda. Ayniqsa, viloyatni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish maqsadida 18 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan xotin-qizlar bilan yuzma-yuz uchrashish, band bo‘lmagan 26 ming 703 nafar ishlash istagi bor xotin-qizlarni aniqlash va ular bandligini ta’minlash bo‘yicha namunali dasturlar ishlab chiqilishida kasaba uyushmasi ham faol ishtirok etdi.

Muhim jihatlardan yana biri endilikda tizimda qo‘shni mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi. Xususan, Qirg‘izistonning O‘sh va Jalolobod viloyatlari vakillari Farg‘ona viloyatiga tashrif buyurdi. Ular bilan mehnatga oid xalqaro normalarni qo‘llashda mavjud tajribalar o‘rtoqlashildi. Mehmonlar Farg‘ona “Avtooyna” MCHJ, “Chimyon” sihatgohida bo‘ldi. Bu yerda ishchi-xodimlarga yaratilgan sharoitlar, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo‘yicha qilingan ishlar bilan tanishdi.

Tojikistonning Konibodom va Qirg‘izistoning Qadamjoy shaharlaridan kelgan ko‘plab nuroniylar viloyatimiz sanatoriylarida salomatliklarini tiklab, bolajonlar oromgohlarda maroqli dam olib qaytgani ana shunday hamkorlikning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘ldi.

XALQARO KO‘RGAZMA

MILLIY HUNARMANDLIK – MILLIY BRENDLAR ASOSI

Ayni kunlarda poytaxtimizdagi “O‘zekspomarkaz”ning milliy ko‘rgazmalar majmuasi yanada gavjum, yanada fayzli. Bu yerda bir-biriga hamohang “Ipak yo‘lida turizm” hamda “Craft fair Uzbekistan” II xalqaro hunarmandlik mahsulot va texnologiyalari yarmarkalari bo‘lib o‘tyapti. Prezidentimizning 2021-yil 30-dekabr kuni qabul qilingan “Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida har yili “O‘zekspomarkaz” pavilyonlarida ayni shunday yarmarkalarni tashkil etish belgilangan.

Sohaning 200 nafar mahalliy, 20 dan ziyod xorijiy vakillari qatnashayotgan ko‘rgazmada kashtachilik, kulolchilik, misgarlik, milliy liboslar, yog‘och o‘ymakorligi, gilamchilik, miniatyura, rangtasvir, naqqoshlik va bo‘yoqli naqshlar kabi 30 dan ortiq turdagi mahsulotlardan tashqari hunarmandlik dastgohlari savdosi ham tashkil etiladi.

Tadbir doirasida zargar Tohir Muhammedov, kulol Abdullo Narzullayev, zardo‘z Baxshillo Jumayev, kulol Vahobjon Buvayev, milliy matolar ustasi Rasuljon Mirzaahmedovning mahorat darslari tashkillashtirilishi yoshlar uchun ayni muddao bo‘lgani bilan ahamiyatli. Ko‘rgazmaning ikkinchi kuni bo‘lib o‘tgan “Hunarmand” uyushmasining VI konferensiyasida so‘nggi besh yillikda erishilgan natijalar va istiqboldagi rejalar ko‘rib chiqildi.

Novica singari xalqaro va bir qator mahalliy onlayn marketpleys va platformalarning taklif etilgani esa hunarmandlik mahsulotlarimiz eksportida muhim o‘rin tutadi. Xalqaro tadbirga xorijiy sayyohlik kompaniyalari, milliy va mintaqaviy tashkilotlar, assotsiatsiyalar, vakolatxonalar, mehmonxonalar, shuningdek, davlat idoralari vakillari taklif etilgani uning nufuzini yanada oshiradi.

Tadbir doirasida 65 yoshdan oshgan, 35 yillik tajribaga ega va hamon faoliyatini davom ettirayotgan “Xalqaro hunarmand usta” maqomiga ega bo‘lgan 6 nafar hunarmandni taqdirlash marosimi ham bo‘lib o‘tdi. Ayni jarayonda yoshlar taqdirlanganlarga havas bilan boqar ekan, vaqt kelib munosib shogirdlar tayyorlashni niyat qilganiga shubha yo‘q.

Xalqaro ko‘rgazma uch kun davom etadi. Bu hunarmandchilik maktablariga xos mahsulotlar, sovg‘abop buyumlar hamda sohada zarur bo‘ladigan dastgohlarni xarid qilish istagidagi yurtdoshlarimiz uchun yaxshi imkoniyat, degani.

Respublika “Hunarmand” uyushmasi rahbari Ulug‘bek Abdullayev ta’kidlaganidek, bu kabi nufuzli tadbirlarning tashkil etilishi hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ular tayyorlayotgan mahsulotlar savdosiga ko‘maklashish, yurtimizga tashrif buyuruvchi sayyohlarga milliy hunarmandchiligimiz haqida ma’lumot berish, yoshlarga hunar o‘rgatishdek dolzarb vazifalar ijrosiga ham xizmat qiladi.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1146.
43313 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:00

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05